

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

dekani _____ prof. Meliyev X.A.

“ _____ ” _____ 2013 y.

51408000 – Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

**“BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MA'NAVIY – ESTETIK
TARBIYALASHNING PEDOGOGIK ASOSLARI” MAVZUSIDA
BAJARILGAN**

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

Bajaruvchi: Xudoyberdiyeva Nafisa

Ilmiy rahbar: katta o'qit. A.Qayumov

Ishni himoyaga tavsiya etaman **A.Qayumov** _____
(imzo)

BMI “Pedagogika va psixologiya”
kafedraasi _____ sonli yig'ilish qarori bilan
(_____, _____ 2013 y) himoyaga tavsiya etilgan
Kafedra mudiri: v/b Qodirova M.Q. _____
(imzo)

Jizzax – 2013

MUNDARIJA

Kirish.

I – bob. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning metodologik asoslari.

- 1.1 Ma'naviyat va ma'naviy rivojlanish haqida davlat ta'lim siyosati.....
- 1.2 Pedagogik kadrlarni badiiy meros asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash imkoniyatlari.....
- 1.3. Badiiy estetik meros asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayoni.....
Bob bo'yicha xulosalar.....

II – bob. Badiiy meros asosida Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari.

- 2.1 Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida talabalarni ma'naviy – estetik tarbiyalash mazmuni.....
- 2.2 Badiiy meros asosida Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning nazariy – pedagogik va amaliy asoslari.....
- 2.3 Muammoning eksperimental tadqiqot yechimi.....
Bob bo'yicha xulosalar.....

Umumiy xulosalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

KIRISH.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, yosh avlodning ma'naviy – estetik tarbiyasiga, xususan shu asosda yangi kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratdi. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda yuqori ma'naviyatni tarkib toptirish, ayniqsa ta'lim sohasida, birinchi galda tarbiyachilarni tarbiyalash hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni yuqori ma'naviy – estetik salohiyatli, estetik qobiliyatli, go'zallikni his eta oladigan, ularni o'z tarbiyalanuvchilariga bera oladigan, ayniqsa o'zbek xalqining boy milliy – badiiy merosiga oshno eta oladigan darajada tarbiyalash pedagogikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchiga boy ma'naviy – estetik bilim - kelgusi pedagogik faoliyatida asqotishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur muammo faqat bo'lajak o'qituvchi ma'naviy – estetik tarbiyalash ilmiy – pedagogik yondashuvi orqali xalqimizning milliy – badiiy merosiga tayangan holatda, fanlararo uzviylikni o'rnatish orqaligina o'z yechimini topadi.

Mustaqil O'zbekistonimizda ma'naviy tiklanishga, xalqimizning boy madaniy merosiga tejamkorona munosabatga alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan bu borada bosh maqsad belgilab berilgan: “ma'naviy va axloqiy tarbiyalangan, barkamol shaxs, mustaqil va barqaror fikrga ega, o'z ajdodlari bebaho me'rosi va umuminsoniy qadriyatlariga tayanadigan avlodni tarbiyalash” (I.Karimov “O'zbekiston – milliy mustaqillik, iqtisod, siyosat, ideologiya”) – faqat maqsadli tarbiya orqaligina amalga oshadi. Bu xususida Prezidentimizning yana bir fikri o'rinli: “Men A.Avloniy fikrini tez-tez eslab turaman: “Tarbiya biz uchun – yo hayot – yo momot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” (“Tafakkur” jurnalida bergan javobi. T. 1998) I.A.Karimov bu so'zlari bilan mazkur masalaning dolzarbligini asoslab, tarbiyani ham “ong mahsuli”, ham “onglilik va rivolanganlik mezoni” sifatida baholaydi. Yana “Biz barkamol avlod tarbiyasini davlat siyosatidagi ustivor yo'nalish sifatida belgilab olganmiz. Barkamol avlod deganda biz,

avvalom bor, ongi yuqori darajada rivojlangan, mustaqil fikrlovchi, atrofda qilarga o'z xulqi bilan namuna bo'la oladigan, yuqori ma'lumotli kishilarni tushunamiz". Shu o'rinda Prezident yuqori malakalar kadrlar hayotiy zaruriyat ekanligini ta'kidlaydi: "Bunday kadrlarni tayyorlash va tarbiyalash, asosan yoshlar orasidan, bugungi kunning eng dolzarb masalasidir". Shu bilan birgalikda Prezident ta'lim – tarbiya sohasini isloh qilish davr talabi ekanligini uqtiradi. Bu o'rinda asosiy e'tibor pedagogik kadrlarni tayyorlash muhimligi ta'kidlanadi. Prezident I.A.Karimov mamalakatning barcha sohasini tubdan isloh qilish tashabbusi bilan maydonga chiqdi. Isloh asosini milliy tarbiya an'analariga tayangan holda tarbiya nazariyasi va amaliyotini tubdan isloh qilish zarurligini asoslab berdi: "... hukumatning iqtisod sohasidagi islohotlari xalqning ma'naviyatini isloh qilish bilan teng, xususan eng yaxshi milliy hislatlarni tarkib toptirish bugunning vazifasidir" ("Vatan barcha uchun muqaddasdir". T.: O'zbekiston. 1995). Prezident bugun ta'lim olayotgan yoshlarning ma'naviy rivojlanishi nafaqat milliy, balki butun dunyo qadriyatlariga asoslanishiga, xususan badiiy merosga – ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga "boy estetik tafakkurni" rivojlantirish maqsadiga urg'u beradi.

Tadqiqot ishining yana dolzarbligi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (KTMD) talablari bilan asoslanadi. Dasturda: bo'lajak kadrlarning estetik tafakkurini yuksaltirishda milliy mustaqillik aqidalariga, O'zbekiston hududida yashovchi o'zbek va boshqa xalqlarning milliy – tarixiy madaniyati tayanish; milliy onhni rivojlantirish, boy milliy madaniy – tarixiy merosga hurmat uyg'otish; pedagogik kadrlarni tayyorlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish, san'at va badiiy adabiyot sarchashmalaridan unumli va o'rinli foydalanish; shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yangi texnologiyalari, samarali metod va shakllarini ishlab chiqish. Dasturda bo'lajak kadrlarning ma'naviy sifatleri belgilab berilgan, ular – bilish faolligi, keng qamrovli bilim, yuqori darajadagi qiziqish, aqliy salohiyat, ijodiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlar, ma'naviy boy shaxs shakllanishi, ijtimoiy faollik kabilardir. Bo'lajak kadrlarga

boy badiiy kadrlarni qadriyatlarni o'zgartirish "boy estetik tafakkur"ni tarkib toptirish asosi bo'lib xizmat qiladi. Sababi yuqori estetik ahamiyatga ega bo'lgan asoslarni o'rganish, avvalambor milliy – madaniy marosimimizdan o'rganish shaxsning ma'naviy o'sishiga xizmat qiladi, anglash salohiyatini kuchaytiradi, analitik tafakkur qobiliyatini o'stiradi, intellektual – ijodiy qobiliyatini takomillashtiradi. Bundan tashqari xalqimizning boy badiiy – madaniy meroslarini o'rganish bo'lajak kadrlarda atrof – muhitga ijobiy munosabatni, yanada rivojlanishga ehtiyojni, o'zining ma'naviy – estetik ehtiyojini qondirish istagini vujudga keltiradi – bularning barchasi bo'lajak kadrning ijtimoiy faolligini ta'minlaydi.

Demak, milliy – madaniy (badiiy) meros asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash umuminsoniy ma'naviyatga erishishiga yo'naltirilgan bo'lib, ilmiy asoslangan xulosalarni va unga erishish metodlarini ishlab chiqishni, muammo yechimining davlat ta'limi siyosati talablariga mos pedagogik va nazariy asoslarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunga kafolat esa davlat ta'lim siyosati hisoblanadi: "Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan, uning ma'naviyati va axloqiy rivojlanishi, ma'naviy targ'ibot ishlari sifatini oshirish muhim masala hisoblanadi" (I.A.Karimov – Milliy istiqlol g'oyasi. 2001)

Muammoning o'rganilganlik darajasi:

Estetik tarbiya, ma'naviyat, shaxsning ma'naviy – axloqiy sifatlari kabi muammolar mavjud bo'lib, ular ham o'zbek, ham xorijiy davlatlar pedagogikasida o'rganilmoqda.

- milliy qadriyatlar jihatidan – N.Azizhodjaeva;
- shaxsning ma'naviy shakllanishi, yoshlarning ma'naviy sifatlarini milliy an'analar asosida tarkib toptirish jihatdan – N.Azizhodjaeva, M.Inomova, J.Mardonov;

Milliy ma'naviy uyg'onish masalalari, xalqimizning boy milliy merosi asosida yoshlarda estetik tarbiyani tarkib toptirish S.Annamuratova, A.Sulaymonov, S.Fayzulina larning ishlarida o'z ifodasini topgan.

Ammo, milliy va umuminsoniy qadriyatlar muammosiga falsafiy – estetik, umummetodologik yondoshuvlar mavjud bo'lib, unda faqat o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalash ilmiy tadqiq etilgan. Ma'naviy – estetik tarbiyalash muammosi ham o'zbek pedagogikasida, ham rivojlangan davlatlar pedagogikasida dolzarb bo'lsa ham o'rganilmagan va bu muammo o'z ilmiy yechimini kutib turibdi, xususan pedagogik kadrlarni ma'naviy – estetik tarbiyalash dolzarbligicha qolib kelmoqda.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalaridagi holat o'rganilganda quyidagi muammolar aniqlanildi:

- talabalarga ma'naviy ma'lumot berish va tarbiyalash “ma'naviyat asoslari” fanini o'rganish jarayonida amalga oshirilmoqda;
- bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy estetik tarbiyalash faollashgan;
- bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning nazariy – metodologik, ilmiy – pedagogik jihatlarini asoslashga urinishlar mavjud. Ammo bu o'rinlarda ham tizimsizlik, pedagogik – psixologik izchillik va mantiq qoidalariga to'liq rioya etmaslik kabi nuqsonlar mavjud. Natijada bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy estetik tarbiyalash muammosi to'liqligicha amalga oshirilmay qolmaydi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish asosan milliy an'analar yoki folklor materiallari bilan chegaralanib qolmoqda, qadriyatlarimizning ma'naviy – estetik imkoniyatlaridan unumli va malakali foydalanilmay qolmoqda. Ko'rsatilgan kamchiliklar pedagogik kadrlarni tayyorlovchi professor o'qituvchilar ham mavjudligi aniqlanildi.

Pedagogika fanlaridan dars beruvchi o'qituvchilarning faoliyati kuzatilganda quyidagi tipik kamchiliklar aniqlanildi: bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ma'naviy – estetik omilga kam e'tibor qaratilmoqda; “ma'naviyat”, “ma'naviy qiyofa”, “ma'naviy – estetik meros”, “ma'naviy – estetik tarbiyalash”

tushunchalari turlicha talqin etilmoqda; umumpedagogik fanlarning ma'naviy – estetik tarbiyalash borasidagi aloqadorlik va izchillilik zaiflashgan (ba'zan sezilmaydi); pedagogika fanlari dasturlarini bo'lajak o'qituvchilarni milliy-madaniy merosimiz asosida ma'naviy – estetik tarbiyalashga yo'naltirilgan innavatsion yondashuv mavjud emas; bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalashning yangi pedagogik texnologiyalari, shakl va metodlari, yangi – yangi metodikalari ishlab chiqilmayapti. Ko'rsatilgan kamchiliklar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, vaholanki o'qituvchining ma'naviy – estetik qiyofasi kasbiy shakllanish va muvofaqqiyatga erishish omili bo'lib hisoblanadi.

Pedagogika fanlari o'qituvchilari talab darajasidagi ilmiy – pedagogik va amaliy tavsiyalarga ehtiyoj sezmoqda, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha zarur amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kun pedagogikasi oldida turgan muammo hisoblanadi.

Shunday qilib, muammoning o'ta dolzarbligi va tezkor amaliy ehtiyoj o'rtasidagi qarama – qarshilik mavjudligi aniqlandi hamda muammoni ilmiy tadqiq etish va ilmiy yechimini izlashga qaror qilindi.

Muammoning dolzarbligi, uning talab darajasida o'rganilmaganligi hamda pedagogik amaliyot holatining qoniqarli emasligi tadqiqotimiz mavzusini “Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari (pedagogika fanlari misolida)” deb nomlashimizga asos bo'ldi.

Tadqiqot maqsadi: bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarining ma'naviy – estetik tarbiyasi.

Tadqiqot predmeti: O'zbek xalqining yuqori ma'naviy estetik badiiy merosi vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning ilmiy – tahliliy jarayoni, kasbiy – shaxsiy tarbiya, pedagogik kadrlarning shakllanishi va takomillashib borishi omili sifatida.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash quyidagi holatlarda muvofaqiyatli amalga oshadi:

- zarur metodologik asoslarga ega bo'lsa;
- tushunchalarga aniq tizimli ifodalar berilsa;
- xalqimizning milliy – madaniy meroslarini pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash mezonlari ishlab chiqilsa;
- pedagogika fanlari dasturlari mazmunini ma'naviy – estetik tarbiyalash nuqtai nazaridan takomillashtirilsa;
- talabalarning yosh xususiyatlariga, psixologik omillariga va muammoning psixologik – pedagogik xususiyatlariga e'tibor qaratilsa;
- maqsadli fanlararo aloqadorlik va uzviylik o'rnatilsa;
- bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashda pedagogika fanlari o'quv materialining estetik mazmun jihatidan boyitilsa va ularning imkoniyatlaridan unumli foydalanilsa;
- o'zbek xalqining boy badiiy – madaniy merosidan yuqori estetik qadriyat sifatida shu tarbiya maqsadida foydalanilsa;
- muammo yechimiga hissiy – estetik, aqliy – ijodiy va kasbiy – shaxsiy yondashilsa;
- ilg'or texnologiyalar, samarali pedagogik – psixologik sharoit, omillar, tashkiliy shakllar, oqilona metodlar, innovatsion metodikalardan unumli foydalanilsa;
- bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash shaxsiy rivojlanish va kasbiy takomillashish omili sifatidagi g'oyaga amal qilinsa.

Tadqiqot vazifalari:

1. Muammo yechimiga ilmiy asosli ifoda berish.
2. Muammoning pedagogaika fanlari va oliy ta'lim amaliyotidagi holatini o'rganish, tahlil qilish va ularni umumlashtirish;

3. “Ma’naviyat”, “ma’naviy - estetik qadriyatlar”, “badiiy qadriyatlar”, “ma’naviy – estetik tarbiyalash”, “bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalash” kabi tadqiqot atamalarini davlat ta’lim siyosatiga muvofiq ifodalash, aniqlash.
4. O’zbek xalqining ma’naviy – estetik (badiiy) merosi asosida bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy - estetik tarbiyalashda pedagogika fanlarining (fan dasturini modifikatsiya qilish bilan birga) imkoniyatlarini aniqlash.
5. O’zbek xalqining ma’naviy – estetik badiiy merosi asosida bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslarini ishlab chiqish.
6. Bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalash bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi: O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari; milliy istiqlol mafkurasining ilmiy asoslari; O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning muammoga oid nutqi va asarlari; “Ta’lim to’g’risida” va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (KTMD); Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari; Xalq pedagogikasi; Olimlarning ilmiy metodologik izlanishlari (A.Azizhodjaeva, Sh. Kuranova. S. Ochilov va boshqalar).

Tadqiqot metodolari: nazariy: falsafiy, ijtimoiy, psixologik, psixologo – pedagogik, pedagogik, didaktik, metodologik, sa’natshunoslik, estetik adabiyotlar tahlili; sotsiologik: o’qituvchi, talabalardan so’rovnoma o’tkazish, testlar, kuzatishlar; pedagogik eksperiment – dars kuzatishlar va qiyosiy tahlil.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: muammoning metodologik – pedagogik holati aniqlanildi; tadqiqot kontsepsiyasi ishlab chiqildi; ma’naviy - estetik tarbiyalash haqidagi nazariy tushunchalar va kategoriyalar mohiyatiga aniqliklar kiritildi va kengaytirildi; bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy - estetik tarbiyalash mezonlari ishlab chiqildi va shakllantirildi; psixologo – pedagogik shart – sharoit va omillar aniqlanildi; muammoni hal etishning nazariy - pedagogik va

nazariy – amaliy asoslari ishlab chiqildi; metodlar tizimi shakllantirildi; bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayonida ma'naviy - estetik tarbiyalash uchun zarur bo'adigan materiallar xalqimizning milliy – badiiy merosidan saralab olindi va ulardan foydalanish talablari ishlab chiqildi.

Himoyaga olib chiqiladigan ilmiy yangiliklar:

1. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogikani o'rganish jarayonida ma'naviy – estetik tarbiyalash mezonlari.
2. Milliy – badiiy qadriyatlarni pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.
3. O'zbek xalqining yuqori estetik milliy – badiiy merosini pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik tizimi, uning tuzilishi va mazmuni, shart – sharoitlari, omillari, texnologiyalari, shakli va metodlari ishlab chiqildi.
4. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash kasbiy – shaxsiy shakllanish.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha nazariy xulosalar, umumlashtirishlar hamda tavsiyalarda; amaliy materiallarda; ishlanmalarda; ilmiy muammo ma'ruza; amaliy va seminar mashg'ulotlari materiallari mazmunlarida o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot ishining tarkibi va hajmi:

Tadqiqot ishi kirish, uch bob xulosalari bilan, tavsiyalar, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy ____ bet.

I-bob. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning metodologik asoslari.

1.1 Ma'naviyat va ma'naviy rivojlanish haqida davlat ta'lim siyosati.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgan (1991 - sentabr) kundan boshlab ma'naviyat, ma'naviy tarbiya masalasiga alohida e'tibor berib kelmoqda. Mazkur siyosat Prezident I.A.Karimov asarlarida, hukumat qaror va qonunlarida, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z ifodasini topgan. Prezident I.A.Karimov davlat siyosatini ma'naviy takomillashtirish, milliy ma'naviyat asosida qurish tashabbusini ko'tarib chiqdi: "Davlat xalq ma'naviy hayotining ham bosh islohotchisidir. Ma'naviy islohotning asosiy maqsadi eng yaxshi milliy sifatlarni tarbiyalashdir, shuning uchun ham bir ma'naviy taraqqiyotga xizmat qiluvchi qonunlarni yaratishimiz zarur" ("O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy asoslari".T. 1995.) Prezidentning ta'kidlashicha xalqning ma'naviy takomillanishi ijtimoiy siyosatga bo'g'liq: "Biz istardikki, iqtisodiy yuksalish ma'naviy takomillashtirish bilan uzviy birlikda olib borilishi zarur".

Prezident I.A.Karimov xalq, jamiyat, mamlakatning ma'naviy yuksalishiga bag'ishlab bir qator asarlar yaratdi: "Buyuk kelajak – bu xalqning yuqori ma'naviyatidir", "Iqtisod va ma'naviyat", "Mustaqillik va ma'naviyat", "Milliy tiklanish yo'lida" va boshqalar. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori" asarida har tomonlama rivojlangan, sog'lom avlod – mamlakatimiz kelajagi sifatida baholanadi. Shuning uchun Prezident yoshlar tarbiyasiga munosabatni o'zgartirishga chaqirib, ma'naviyatli yoshlar jamiyat taraqqiyotini belgilashini ta'kidlaydi: "Taraqqiyotni ma'naviyati yuksak kishilar yaratadi" yana "Maqsadga erishishimiz, yangi jamiyat qurishimiz, siyosatdagi, iqtisoddagi, ta'lim va xalq turmush tarzidagi islohotlar taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq", Aytish joizki, islohotlar taqdiri ma'naviy – estetik tarbiya topgan yoshlarga bog'liq.

Prezident yana bir nutqida: “Hayot davom etar ekan, ta’lim va tarbiya davr talabiga ko’ra sekin – asta rivojlanadi va yangilanib boradi” deb islohotlar zarurligini, milliy qadriyatlarga tayangan holda yangilanib borishini uqtiradi. Shuning uchun bu masala “davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo’lib qolishi zarur” ligini ta’kidlaydi. Shu bilan birgalikda I.A.Karimov yosh avlodni tarbiyalashda xalqimizning milliy ma’naviyatiga tayanish va ulardan unumli foydalanishga chiqaradi: “Yuksak ma’naviyat – kelajak poydevoridir”. Prezident xalqimizning, ajdodlarimizning bebaho javohiri hisoblangan ma’naviy qadriyatlaridan oqilona foydalanish, ajdodlarimizga voris bo’lish, ularning orzusidagidek yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish muhim vazifa ekanligini uqtiradi. Ajdodlarimiz qoldirgan uzoq tarixga tomir otgan bebaho ma’naviy poydevor milliy mustaqilligimizni qurishga asos bo’ldi.

Prezident yosh avlodni o’zbek xalqining ma’naviy merosi ruhida, xususan xalqimizning boy ma’naviy boylikka ega ekanligi, uning donishmandligi, estetik madaniyati, yaratuvchanlik salohiyati, milliy g’urur, diniy bag’rikenglik kabilarni o’zida aks ettirgan tarixiy – madaniy, ma’naviy – axloqiy, ma’naviy – estetik merosi ruhida tarbiyalash zarurligini o’qtiradi. Shu bilan birgalikda I.A.Karimov yoshlar tarbiyasi ta’lim muassasalarida tarkib topishiga e’tibor qaratib, “yoshlarga ta’lim va tarbiya berish metodlari haqida, ularning kasbiy shakllanishi haqida qayg’urish muqaddas burchimiz” ekanligini eslatib o’tadi; “milliy ma’naviyat nuqtai nazaridan darsliklar va o’quv qo’llanmalarni qayta ko’rib chiqish talab etiladi”(O’zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy asoslari. 1995-y). Demak. Pedagogika oliy o’quv yurtlari fan dasturlariga zarur o’zgartirishlar kiritish, xususan pedagogik kadrlarni estetik jihatdan tarbiyalashni takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda. Ma’naviy – estetik tarbiyalash tarbiya zaruriyati faollashmoqda. Faqat ma’naviy – estetik tarbiya ko’rgan kishigina milliy – estetik qadriyatlarni anglashi va e’zozlashi mumkin, faqat ma’naviy – estetik tarbiya ko’rgan o’qituvchigina yosh avlodni

ma'naviyatli va boy estetik tafakkurga ega etib tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagogik kadrlarning yangi avlodini tarbiyalash ishi, jumladan ma'naviy – estetik tarbiyalash, milliy g'oyamizni bekami – ko'st amalga oshiradi.

Ushbu ishni samarali amalga oshirishda bizga Prezident I.A.Karimov asarlarida ma'naviyat va tarbiya asoslarini ilmiy izohlashga qaratilgan Safo Ochilning “Mustaqillik: ma'naviyat va tarbiya asoslari” mavzusidagi tadqiqoti metodologik ahamiyatga ega. Safo Ochilov ma'naviyat va uning tarkibiy tuzilishi mohiyatini tadqiq etadi, ma'naviyat inson holatining turli ko'rinishlari sifatida baholanadi. Ma'naviyat umumiy va shaxsiy turlarga bo'linadi, ikkinchisiga ko'proq e'tibor qaratiladi: “Jamiyat rivoji shaxsiy ma'naviyat, uning mafkuraviy oqimi ta'sirida amalga oshadi, hukumatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatadi”. Shuning uchun “Shaxsiy ma'naviyatni tarbiyalash muhim vazifadir”. Safo Ochilov ma'naviyatning tarkibiy qismlarini shakllantiradi: “Ma'naviy ma'lumotga ega bo'lish; umumiy – didaktik rivojlanish; falsafiy – pedagogik o'sish, diniy tarbiya; milliy ahloq me'yorlariga bo'ysunish; ilmiy ma'lumot; tafakkur tozaligi va fikr teranligi; milliy qadriyatlarga hurmat; vatanparvarlik tuyg'usi; insonsevarlik, baynalminallik, adolatlilik, sadoqat, chidamlilik, botirlik, tashabbuskorlik; vatan mustaqilligini himoya qilishga tayyorgarlik; yod g'oya va ta'sirlarga berilmaslik; islom diniga ishoch; ajdod va ularning merosiga cheksiz hurmat. Ushbu konseptual yo'nalishlar ma'naviy tarbiyaning metodologik asosini tashkil etadi”. S.Ochilov Prezident asarlariga tayanib ma'naviy tarbiya yo'nalishlarini aniqlab chiqdi: ma'naviy tarbiyaning tarixiy ildizlarini diqqat bilan o'rganish jumladan, olim ma'naviyatining milliy xususiyatlarini ajratib ko'rsatgan. Ular: madaniy bilimlarning yuksalishi; ijtimoiy – didaktik taraqqiyot; falsafiy – pedagogik rivojlanish; kelajakka qa'tiy ishonch; milliy ahloq qoidalariga to'liq rioya etish; shaxsda yuksak ma'naviyat sifatlarni shakllantirish; insonparvarlik, vatanparvarlik; adolatparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat; jon fido eta olish;

botirlik, qo'rqmaslik, tashabbuskorlik, islom diniga e'tiqod, vatan va xalq himoyasiga tayyorlik va boshqalar.

Safo Ochilov o'zbek xalqining boy ma'naviy merosiga e'tibor qaratib "Avesto" va "Qur'on" kitoblarida ma'naviy tarbiya manbaa ekanligini ko'rsatadi. Bundan tshqari ma'naviy tarbiya tarixini o'rganish muhim didaktik ahamiyatga ega. Al-Xorazmiy (780-850), Imom Al-Buxoriy (810-870), Imom Al-Marvaziy (780-855), Imom At-Termiziy (824-892), Abu Nasr Farobiy (870-930), Abu Rayhon Beruniy (970-1084), Ibn Sino (980-1037), Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy (1044-1170), Az-Zamaxshariy (1070-1143), Najmiddin Kubro (1145-1221), Paxlavon Maxmud (12247-1326), Alisher Navoiy (1141-1501), Ogahiy (1809-1914) kabi buyuk allomalarimizni merosi to'liq ma'noda ma'naviyat manbai hisoblanadi. Shular qatorida XIX-XX asrlarda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar (Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat) ning bu boradagi qarashlari bugun ham o'zini mohiyatini yo'qotmagan, hatto, aytish mumkinki, yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash ishida metodologik asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ma'naviy tarbiya tarbiyaning asosiy bo'g'ini bo'lib, tarbiyaning boshqa turlari uning atrofida to'ldiruvchi vazifalarini bajaradi.

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy – marifiy ishlar bo'yicha prorektorlik lavozimining ajratilishi ham masala muhimligidan belgidir. Mazkur muammoga Respublika teleko'rsatuvlari va radioeshittirishlari ham katta o'rin tutadi. Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'naviyat – milliy ma'naviy yuksalish haqidagi g'oyasi rivojlanmoqda va tobora takomillashib bormoqda.

Pedagog olim Safo Ochilovning Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida ma'naviyat, ma'naviy tarbiya masalalari atroflicha o'rganilishidan biz o'zimizning tadqiqot ishimiz uchun quyidagi nazariy metodologik va ilmiy - pedagogik ustivor yo'nalishlarni aniqlab oldik:

- insondagi yuksak ma'naviy madaniyatni hurmat qilish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ta;lim olayotgan yoshlarni ma'naviy tarbiyalash;

- yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda xalqimizning milliy ma'naviy – madaniy merosidan tarbiya vositasi sifatida foydalanish;
- yoshlarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida zamonaviy avlod shaxsini har tomonlama garmonik rivojlantirish va takomillashtirish;
- xalqimizning ma'naviy merosidan foydalanish orqali milliy tiklanish g'oyasini ta'lim – tarbiya mazmuniga singdirishni rivojlantirish va yangilash;
- ta'lim tizimida tarbiya omilini kuchaytirishni pedagogik kadrlarni tayyorlashni o'zgartirish orqali amalga oshirish, ularning ma'naviy – estetik tarbiyalash, yuksaltirish, ongiga milliy qadriyatlarni chuqurroq singdirish;
- ma'naviy tarbiyaning barcha qirralarini qamrab olish;
- ma'naviy tarbiyaning milliy xususiyatlariga e'tibor qaratish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda munosib ma'naviy sifatlarni tarbiyalash maqsadida ma'naviy – targ'ibot ishlarini kuchaytirish;
- milliy qadriyatlarga tayangan holda har tomonlama ma'naviy tarbiyalash orqali yoshlarda milliy g'urur va milliy iftihar tuyg'ularini tarbiyalash.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – kadrlar tayyorlashning milliy modeli bo'lib, unda dasturning maqsadi, vazifalari, yangi avlod kadrlarini tayyorlash, yuqori malakali va ma'naviyatli hodimlarni tayyorlab yetkazish yo'nalishlari belgilab berilgan.

Milliy Dastur tarkibiy tuzilishiga quyidagilar kiritilgan: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, uzluksiz ta'lim jarayonida aqliy salohiyatli va ma'naviy tarbiyalangan, kasbiy ma'lumot va talab darajasidagi malakaga ega, jamiyat va mamlakat faravonligi yo'lida ma'lum ishlab chiqarish sohasining salohiyatli ishtirokchisi sifatida namayon bo'lishi kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yangi avlod kadrlarini yuqori zamonaviy ta'lim qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali yangi jamiyat quruvchisi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Yuqori zamonaviy ta'lim qadriyatlariga xalqimizning boy madaniy – tarixiy an'analariga asoslanadigan ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlar kiradi. Bu qadriyatlar madaniy – ma'naviy va ma'naviy – tarbiyaviy vazifalarini bajarish maqsadida ta'lim mazmuniga kiritilishi lozim. Barcha ta'lim tizimida tarbiya jarayoni ustivor vazifa sifatida belgilanmoqda. Keng ma'noda tarbiy – “bu maxsus tashkil etilgan, katta avlodning ijtimoiy – madaniy tajribasini yosh avlodga maqsadli yetkazish qaratilgan keng qamrovli tadbirlar majmuasidir”.

Milliy – ma'naviy tarbiya – bu yuksak milliy sifatlarni tarbiyalovchi ta'lim jarayoni maqsadi va natijasi bo'lib, ma'lum milliy – ma'naviy bilimlar jamlanmasidir. Ta'lim jarayoni, Dasturda ko'rsatilgandek shaxsga yo'naltirilgan, uning betakrorligi, qobiliyat va qiziqishlari, tajribasi, imkoniyatlariga tayanishi zarur.

Milliy dasturda ta'lim oluvchining nafaqat qobiliyat va salohiyatini ochish nazarda tutilgan, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi belgilab berilgan. jamiyatning ma'naviy yangilanishi ta'lim oluvchilarning ma'naviy tarbiyasiga va rivojlanishiga bevosita bog'liq. Xalqimizning ma'naviy, marifiy, ma'naviy – axloqiy va estetik merosi, hamda umuminsoniy qadriyatlar barcha ta'lim va kasbiy ta'lim dasturlarining asosiy bo'g'iniga aylanishi zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasida tarbiya omili ma'naviy – estetik jihatdan qayta ishlanmoqda, urg'u ma'naviy – axloqiy, ma'naviy – estetik tarbiyaga va bu tarbiyani amalga oshirishning yangi texnologiyalariga qaratilmoqda. Pedagogika shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishda milliy – madaniy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanmoqda. Pedagogik kadrlarni tarbiyalashda bu jihat kasbiy ahamiyatga molik ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda davlat milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kadrlarni tarbiyalash va tayyorlash kafolati hisoblanadi. Fan bu o'rinda hal

etuvchi rolni bajaradi: Milliy Dasturni samarali amalga oshirishga qaratilgan ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilmoqda; oliy malakali kadrlar tayyorlash sifati yuksalmoqda. Izchillik bilan uzluksiz ta’lim tizimining barcha jabhalarida ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy – uslubiy jihatdan ta’minlash amalga oshirilmoqda. Ammo ma’naviy tarbiya hozircha ma’naviy – axloqiy omillar bilan chegaralanib qolmoqda. Shunday bo’lsada milliy pedagogikamizda biroz jonlanish kuzatilmoqda – qator omillar ma’naviyat muammosini ilmiy tadqiq etmoqda, jumladan milliy qadriyatlarni tadqiq etish boshlangan.(A.Abdunabiev, A.Azizxonov, Sh.Qurbonov,Sh.Mardonov).

Kadrlar tayyorlash milliy dasturidan biz o’zimizning tadqiqot ishimiz uchun quyidagi nazariy – metodologik va tashkiliy – pedagogik jihatlarni asos sifatida oldik:

- bo’lajak pedagogik kadrlarning ma’naviy tarbiyasiga pedagogik va ijtimoiy ahamiyat qaratish;
- yuksak ma’naviyat talablariga javob beruvchi pedagogik kadrlarni tayyorlash;
- bo’lajak pedagogik kadrlarning shaxsiga, ma’naviy salohiyatiga e’tibor qaratish;
- bo’lajak o’qituvchilarning ma’naviy tarbiyasiga kasbiy – shaxsiy takomillashtirish omili sifatida e’tibor qaratish;
- bo’lajak o’qituvchilarni yuksak madaniy – tarixiy qadriyatlar, xalq an’analari, umuminsoniy ideallarga asoslanib tarbiyalash;
- yuksak milliy qadriyatlar va o’quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadida ta’lim berish jarayonining tarbiyaviy jihatini kuchaytirish;
- bo’lajak pedagogik kadrlarni tarbiyalashga shaxsga yo’naltirilgan innovatsion yondashishni joriy etish.

1.2 Pedagogik kadrlarni badiiy meros asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash imkoniyatlari.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash muammosi ajdodlarimizning badiiy merosini chuqur o'rganish, avvalambor tushunchalar ko'rib chiqish, aniqliklar kiritish zarur. Ular: “estetika”, “estetik qadriyat”, “estetik tarbiya”, “estetik madaniyat”, “ma'naviyat”, “ma'naviy – estetik tarbiyalash”, “badiiy meros”, “badiiy qadriyat”, “milliy – badiiy qadriyatlar” va boshqalar;

“ma'naviyat”, “badiiy qadriyat asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash”, “milliy – badiiy meros asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash” tushunchalarga aniqliklar kiritish va shakllantirish;

Tadqiqot konsepsiyasini shakllantirish;

pedagogik fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash mezonlarini ishlab chiqish;

pedagogik fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash ga tizimli yondashuv;

milliy – badiiy meros asosida pedagogik kadrlarni ma'naviy – estetik tarbiyalash ning ijtimoiy – pedagogik aniqlash.

“Qisqa pedagogik lug'atlar” (M-2005) da “Ma'naviyat” ga quyidagicha izoh berilgan:

- umuminsoniy va milliy ahamiyatga ega bo'lgan oliy qadriyatlarni egallash jarayonida shakllanadigan tizimli sifat bo'lib, shaxsning intellektual – axloqiy va hissiy – idoraviy rivojlanishidir. “Insonning ma'naviy hayoti – bu o'z faolligi orqali ehtiyojlarini va talablarini qondirish jarayonida rivojlantirish, shakllantirish demakdir”.

Ma'naviy tarbiya umuminsoniy ma'naviyatga erishishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Ma'naviy – estetik tarbiya. Bu tushunchani yuqorida o'rganilgan nazariya asosida shakllantiramiz. Nazarimizda ma'naviy – estetik tarbiyalash – estetik

tarbiyaning tarkibiy qismidir. Bu insonning o'z estetik tuyg'ulari, qiziqishlari, bilimli va ehtiyojlarini rivojlantirish, shakllantirish va qondirishdir. Shaxsning ma'naviy – estetik sifatlarini shakllantirish, avvalambor, milliy – badiiy meros asosida amalga oshadi.

Badiiy qadriyatlar asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash – estetik tuyg'u, his etish, badiiy – estetik bilin, tushunchalar, asarlarga hurmat munosabat, mazkur jarayonga aqliy – ijodiy yondashuv, ma'naviy – estetik sifatlarining shakllanishining rivojlanishidir.

Badiiy meros asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash – o'tmishning badiiy madaniy merosni o'rganish, ular orasidan haqiqiy yuksak estetik ijod namunalaridan zavqlanish, faxrlanish tuyg'ularini aks etishdir. Badiiy meros asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash quyidagi jarayondan tarkib topadi:

- estetik tuyg'u (hayratlanish, quvonish, qoniqish, lazzatlanish, ma'naviy hotirjamlik);
- badiiy asarning asosiy g'oyasini aqliy anglash qobiliyati;
- badiiy – estetik tushuncha, bilim, tasavvur, voqealarni mantiqiy – analitik tahlil etish.

O'zbek xalqining badiiy merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash – umumta'lim va tarbiya tizimida, gumanitar va pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida, xalqimizning yuksak badiiy “abadiy qadriyatlarini” o'rganish jarayonida amalga oshadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash – bu o'zbek xalqining boy badiiy – madaniy o'tmishini o'rganishga pedagogik kadrlarni jalb etish jarayonidir (ular: miniature rasmlari, xalq og'zaki ijodi, ornament san'ati, tarixiy obidalar, nodir qo'lyozmalar).

Bu jarayon: his – tuyg'ularni shakllantirish – estetik (hayrat, quvonch, qoniqish, lazzatlanish) , milliy faxr tuyg'usi, milliy ong;

o'zbek xalqining nodir badiiy merosi qatoriga kiruvchi asarlarni o'qish – o'rganish;

o'zbek xalqining boy milliy – madaniy merosiga hissiy – estetik va qadriyat munosabat bildirish;

o'zlashtirilgan ma'naviy – estetik barqaror e'tiqodini, motivlarini, bilimlarini, tushuncha va qobiliyatlarini umumlashtirish;

o'z kasbiy – shaxsiy rivojini ma'naviy – estetik jihatdan holisona baholash;

bo'lajak o'qituvchilarni o'zini ma'naviy – estetik takomillashtirib borishini faollashtirish zaruriyati, jumladan milliy – badiiy merosdan tashqariga chiqish kasbiy – shaxsiy tiklanish omili sifatida.

Tadqiqot konsepsiyasi - ma'naviy – estetik tarbiyalash, zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb muammosi sifatida quyidagilari amalga tadbqiq etish zarur:

- Davlat ta'lim siyosatiga muvofiq zamonaviy umummetodologik talablarni aniqlash;
- zamon talablaridan kelib chiqib “ma'naviyat”, “ma'naviy – estetik tarbiyalash” tushunchalariga aniqlik kiritish;
- ma'naviy – estetik tarbiyalash ning kasbiy shakllantirishdagi rolini aniqlashda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- pedagogika fanlari dasturlarini modifikatsiya qilish va ularning bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash;
- bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash ning umumpedagogik tizimini ishlab chiqish;
- o'zbek xalqining badiiy merosidan yuksak milliy – estetik qadriyatlarini saralab olish (ular bo'lajak o'qituvchilarga boy intellektual ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda va ma'naviy dunyosini boyitadi, kelgusi pedagogik faoliyatida ulardan unumli foydalanadi);
- ma'ruzalar mazmunini ishlab chiqish, ularning texnologiyalari, seminar – laboratoriya mashg'ulotlari ishlanmalarini tayyorlash;

- talabalarga ma'naviy – estetik ta'sir ko'rsatishning samarali omillari, metodlari va shakllarini aniqlash.

Aniqlanilgan va shakllantirilgan tushunchalar ma'naviyat haqida davlat ta'lim siyosatiga mos ravishda mualliflik konsepsiyasini yaratishga asos bo'ldi. Yuqoridagilarga tayanib bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalash mezonlarini ishlab chiqdik. Ular quyidagicha:

1. Davlat ta'lim siyosatiga mos ravishda ma'naviy – estetik rivojlanishni kasbiy – shaxsiy anglab yetish zaruriyati.

2. Ma'naviy – estetik tarbiyalash kategoriyalari, tushunchalari bilish, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash ga qo'yiladigan talablarni bilish.

3. O'zbek xalqining badiiy merosi haqida tarixiy bilimga ega bo'lish.

4. O'zbek xalqining “abadiy qadriyatlari” sirasiga kiruvchi asarlarni o'rganish:

a) estetik his – tuyg'u bilan qabul qilish.

b) intellektual – ijodiy, badiiy – analitik darajada o'rganish.

v) asarga o'z munosabatini bildirish:

- hissiy;

- qadrllovchi;

- kelgusi pedagogik faoliyatga kasbiy foydalana olishni “ko'rish”.

5. O'zlashtirilgan bilim, motivlar, tushunchalar, taasurotlar, ma'naviy – estetik e'tiqodlar umumlashtirilgan holda kelgusi pedagogik amaliyotida qo'llay olish malakalarini shakllantirish.

6. Ma'naviy – estetik jihatdan o'zini takomillashtirishga ehtiyojni tarkib topdirish:

a) ajdodlarimizning badiiy merosi sohasida.

b) o'zbek xalqining badiiy madaniyati sohasida.

v) boshqa xalqlarning badiiy merosi sohasida.

g) shaxsiy – kasbiy sohasida.

Yuksak badiiy meros namunalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash sxemasi quyidagi komponentlarni nazarda tutadi: yo'naltiruvchi – motivatsiyalar, shaxsga yo'naltirilgan, tushuncha – atamalar ko'lami, tarixiy, o'quv – bilish, badiiy – analitik, ijodiy aks ettiruvchi, o'z-o'zini baholovchi, o'z-o'zini takomillashtiruvchi.

O'zbek xalqining badiiy merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy - estetik tarbiyalash tizimi.

- I.** Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-estetik rivojlanish zaruriyatini anglab yetishi – ijtimoiy – shaxsiy va kasbiy – pedagogik motivlar asosi sifatida qabul qilinishi.
- II.** Zarur tushunchalar ko'lamini o'zlashtirish.
- III.** Milliy g'urur va iftixorni uyg'otuvchi o'zbek xalqining badiiy merosi haqidagi tarixiy bilimlarga ega bo'lish. Ular orasidan yuksak ma'naviy-estetik mazmunga ega bo'lgan tarbiyaviy salohiyatlarini ajratib olish.
- IV.** O'zbek xalqining badiiy merosini his-tuyg'u bilan qabul qilish, mantiqiy – analitik tahlil eta bilish.
- V.** O'zlashtirilgan bilim va malakalarni o'z pedagogik faoliyatida qo'llay olishga zamin yaratish.
- VI.** Bo'lajak o'qituvchilarning o'z ma'naviy-estetik rivojini kasbiy – shaxsiy nuqtai nazaridan baholay olishi.
- VII.** Bo'lajak o'qituvchilarning o'zini ma'naviy-estetik jihatdan takomillashtirib borish zarurligiga ehtiyoj uyg'otish.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalash (MET)ga pedagogika fanlarini o'qitish orqali tizimli yondashuv:

Pedagogika tarixi.

Pedagogika nazariyasi.

Pedagogik mahorat.

Pedagogik texnologiyalar.

Yuqorida qayd etilganlarga asoslanib (estetikaga oid tushunchalar to'plami, xalq badiiy merosi asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash, o'zbek xalqining yuksak badiiy merosi namunalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash haqida, tadqiqotning mualliflik metodikasi, ma'naviy – estetik tarbiyalash mezonlarining ishlab chiqilganligi) pedagogik kadrlarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning ijtimoiy – pedagogik imkoniyatlari aniqlanildi. Bu avvalambor, ijtimoiy – pedagogik imkoniyatlar: davlat ta'lim siyosatining tadqiqot muammosiga mos talablari, Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'naviyat haqidagi fikrlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (KTMD) pedagogik kadrlar tayyorlashga qo'ygan talablari, ma'naviy – estetik tarbiyalashning zaiflashishi, ta'lim muassasalarida tarbiya olishning ustivor o'rin egallashi, ajdodlarimiz merosi va tariximizni izchil o'rganilishi va ularning yoshlar ongiga yetkazilishi zaruriyati, faol ijodiy tafakkur, milliy ongning uyg'onishi, xalq merosini teran anglash davr talabi ekanligi, milliy g'urur va milliy iftixorni tarkib toptirish zaruriyati, pedagogik kadrlarning ma'naviy – estetik tarbiyasi – davlat, jamiyat, xalq ta'limi, ta'lim muassasalarining ijtimoiy – pedagogik buyurtmasi ekanligi kabilardir.

Pedagogik kadrlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy – estetik tarbiyasi muammosi yechimi kechiktirib bo'lmas ijtimoiy ahamiyatga ega; pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi, ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga va oxir oqibat davlat ta'lim siyosatining bajarilishiga olib keladi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (KTMD) bajarilishini ta'minlaydi. Natijada yuqori intellektual qobiliyatli va ma'naviyati boy o'qituvchi – tarbiyachilarning yangi avlodi tarbiyalanadi. Buning kafolati esa davlat, davlat ta'lim siyosati hisoblanadi.

1.3. Badiiy – estetik meros asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayoni.

Tajriba – sinov jarayoni. Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida o'zbek xalqining boy madaniy – estetik qadriyatlari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash. Ma'ruza mashg'ulotlari misolida:

- “Ma'naviyat, ma'naviy – estetik tarbiya haqida davlat ta'lim siyosati, uning shaxs rivojida o'rni”;
- “Milliy – badiiy meroslarni o'rganish jarayonida ma'naviy – estetik tarbiyalash va rivojlanish” (o'zbek folklori, Sharq lirikasi, O'rta Osiyo miniaturasi, O'zbekiston arxitekturasida yodgorliklari).

Ma'naviy – estetik tarbiyalash o'quv materialini mazmunini tadqiqot muammosi bilan boyitgan holda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi maqsadida amalga oshadi.

Tadqiqot tajribasining I-bosqichi – motivatsiya.

“Pedagogika tarixi” kursi, Talabalarga ma'naviy – estetik tarbiyalashning ijtimoiy ahamiyati va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllantirishdagi zaruriyatini ochib berish.

Ma'ruza – “Ma'naviyat, ma'naviy – estetik tarbiyalash haqida davlat ta'lim siyosati, uning shaxs rivojida o'rni”.

Maqsad: I.A.Karimov asarlari va nutqlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ma'naviyat, yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash masalalarini ko'rib chiqish; “ma'naviy – estetik tarbiyalash” tushunchasi, uning o'qituvchi faoliyatidagi rolini tahlil etish.

Ma'ruza texnologiyasi.

Ma'ruzaning I-chi qismi.

- I. I.A.Karimov asarlari, nutqlari va metodologik adabiyotlar asoslanib ma'naviyat, ma'naviy tarbiya haqida davlat ta'lim siyosatining asosiy g'oyalarini ifodalash.

Ma'ruzaning II-chi qismi.

II. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadli o'rganish:

1. Yuksak ma'naviyat talablariga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash.
2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash imkoniyatlari.
3. O'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash kasbiy – shaxsiy zaruriyat sifatida.
4. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash haqida estalik.
5. Mavzu yuzasidan adabiyotlar.

Ma'ruzaning III-chi qismi.

III. Ma'naviyatga oid bo'lgan tushuncha, atamalarni Sharq mutafakkirlari, I.A.Karimov nutqlariga tayanib izohlash. Zarur adabiyotlarni tavsiya etish.

Ma'ruzaning IV-chi qismi.

IV. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalash aniqlash mezonlarini muhokama etish.

Ma'ruzaning V-chi qismi.

- V. Ma'ruza materiallarining asosiy joylarini umumlashtirish.
- VI. Ma'ruza mazmunini muhokama, suhbat, dialog, bahs vositalari orqali mustahkamlash.
- VII. Topshiriqlar: ma'ruza tayyorlash, referat yozish.
- VIII. Topshiriqlar: tanlash ixtiyoriy va mustaqil: konspekt, lug'atlar bilan ishlash, sitatalar ko'chirib yozish.

Ma'ruza mazmuni – reja

Ma'ruzaning 1-chi qismi.

- I. O'zbekiston mustaqilligidan keyin davlat ta'lim siyosatida ma'naviyat, ma'naviy tarbiyaga e'tibor qaratilishi.

II. President I.A.Karimov ma'naviyat, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi haqida.

1. Davlat siyosatining ma'naviy takomillashish, milliy ma'naviyatga asoslanishi.
2. "Buyuk kelajak – xalqning buyuk ma'naviyati".
3. "Sog'lom avlod – mamlakatimiz kelajagi".
4. Yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash zaruriyati, zero "taraqqiyotni ma'naviy tarbiyalanganlar ta'minlaydi".
5. Respublika Prezidenti ta'lim – tarbiya milliy tiklanish g'oyasi asosida rivojlanish va yangilash tashabbuslari.
6. I.A.Karimov yosh avlodni tarbiyalashda:
 - a) ma'naviy meros, ajdodlarimizning milliy qadriyatlari.
 - b) xalqimizning ma'naviy – axloqiy, ma'naviy – estetik merosidan unumli foydalanish zaruriyati haqida.
7. I.A.Karimov yosh avlodni tarbiyalashda "abadiy qadriyatlar", "insonparvarlik tuyg'usi", "insoniy sifatlar"ga tayanish zaruriyati haqida.
8. I.A.Karimov:
 - a) ta'lim – tarbiya metodlari, kadrlarning kasbiy darajalari haqida;
 - b) "milliy ma'naviyat nuqtai nazaridan darslik va o'quv qo'llanmalarini qayta ko'rib chiqish" haqida.

III. Milliy istiqlol g'oyasini amalga oshirish maqsadida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib ma'naviy – estetik tarbiyalashning hayotiy zaruriyati.

IV. Pedagogik kadrlarni ma'naviy – estetik tarbiyalashda badiiy meros imkoniyatlari.

1. Davlat ta'lim siyosatining mos talablari.
2. I.A.Karimov ma'naviyat, ma'naviy tarbiya haqidagi asoslari va nutqlari.

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari.
4. Ma'naviy – estetik tarbiyalashning ta'lim tizimi ob'ekti va sub'ektida zaiflashish.
5. Ta'lim jarayonida tarbiya ustivorligi, o'qituvchilarning ma'naviy tarbiyasiga e'tibor kuchayganligi.
6. Estetik qadriyatlarning keng imkoniyatlari:
 - a) ajdodlarimizning boy milliy – badiiy merosga ega ekanligi.
 - b) ulardan yoshlarni ma'naviy – estetik tarbiyalashda foydalanish.

V. Pedagogik kadrlarni ma'naviy – estetik tarbiyalash – davlat, jamiyat, xalq ta'limi, ta'lim muassasalarining ijtimoiy – pedagogik buyurtmasi.

1. Pedagogik kadrlarni ma'naviy – estetik tarbiyalash muammosining ijtimoiy ahamiyati.
2. Bu – pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi.
3. Bu – davlat ta'lim siyosati, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga tadbiq etilishi.
4. Bu – yuqori aqliy salohiyatli va ma'naviyati boy o'qituvchi – tarbiyachi.
5. Ma'naviy – estetik tarbiyalash – bu yuqori milliy – badiiy va umuminsoniy sifatlarga ega shaxs tarbiyasidir.

VI. Davlat ta'lim siyosati – pedagogik kadrlarni muvaffaqiyatli ma'naviy – estetik tarbiyalash kafolati.

VII. Davlat ta'lim siyosati haqida tayanch estalik: insondagi yuksak ma'naviyatni hurmat qilish; ma'naviy tarbiyada milliy omil ustivorligi; ma'naviy tarbiya orqali shaxs takomillashuviga erishish; milliy – istiqlol g'oyasi ta'lim – tarbiya tizimiga singdirish; madaniy oqartuv ishlarini milliy qadriyatlar hisobiga kuchaytirish; boy estetik dunyoqarashni shakllantirish; ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga e'tibor qaratish; milliy g'ururni shakllantirish.

VIII. Ma'ruza bo'yicha adabiyotlar.

I. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

1. O'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi haqidagi dastur.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yuqori malakali, yuksak ma'naviyatli kadrlarga talablari.
3. Komil inson shaxsini shakllantiruvchi zamonaviy ta'limning qadriyatlar haqidagi dasturi.
4. Ta'lim – tarbiya jarayonida ma'naviy, ma'naviy - estetik tarbiya ustivorligi.
5. Pedagogik kadrlarni ma'naviy tarbiyasi – shaxsiy va kasbiy zaruriyati.
6. Pedagogik kadrlar tayyorgarlik sifatini oshirishda pedagogika fanlarining ahamiyati.

II. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi nimalarni eslab qolish zarur:

- bo'lajak pedagogik kadrlarni ma'naviy – estetik tarbiyalashga - pedagogik va jamoat maqomining berilishi;
- yuksak ma'naviyat talablariga javob beruvchi pedagogik kadrlarga ehtiyoj kattaligi;
- bo'lajak pedagogik kadrlarning shaxsi, ma'naviy – estetik salohiyatiga asosiy e'tibor qaratilganligi;
- kasbiy-shaxsiy takomillashish omili sifatida bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy tarbiyasiga e'tibor qaratilishi;
- ta'lim jarayonida tarbiya tamoiliga e'tibor kuchayganligi;
- bo'lajak pedagogik kadrlar tarbiyasiga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.

III. Ma'ruza bo'yicha adabiyotlar.

Ma'ruzaning 3-chi qismi.

I. Ma'naviyat.

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish jarayonida yuksak aqliy – axloqiy va hissiy – irodaviy rivojlanishni shakllantiruvchi tizimlilik.

2. Ma'naviyat – insonning shaxsiy va jamoaviy hayotining turli xil holatidir.
3. Yuksak ma'naviyat – umuminsoniy ma'naviyat.
4. Ma'naviyat va uning tarkibiy qismlari.
 - a) Ma'naviyat: ma'naviy rivojlanish, ijtimoiy – didaktik pozitsiya, falsafiy – pedagogik o'sish, diniy tarbiya, milliy ahloq me'yorlariga rioya etish, ilmiy bilimdonlik, dunyoqarash va tafakkur tiniqligi, milliy an'analarga hurmat, vatanparvarlik tuyg'usi, adolatlik, sodiqlik, botirlik, tashabbuskorlik, qo'rqqaslik, vatan, xalq va mustaqillikni himoya qilish, vatanga xizmat, huquqiy madaniyat va dahlsizlik, islom diniga ishonch, ajdodlar va ularning merosiga hurmat.
 - b) Ma'naviyatning tarkibiy qismi: madaniyat va bilimning ulug'lanishi; ijtimoiy – didaktik taraqqiyot; falsafiy – pedagogik rivojlanish; qat'iy e'tiqod; milliy axloq va etika me'yorlarini to'liq bajarish; shaxsda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish; insonparvarlik, vatanparvarlik, insonga hurmat, adolat tuyg'usi, milliy qadriyatlarga muhabbat, o'zini qurbon qilish, botirlik, tashabbuskorlik; islom diniga e'tiqod; vatan himoyasiga tayyorlik, ajdodlar merosiga hur
5. Milliy ma'naviyatning asosiy vazifalari va asosiy mohiyati.
 - a) ma'naviy va axloqiy munosabatlarda har tomonlama tarbiyalangan shaxsga e'tibor kuchayishi;
 - b) xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida vijdoniylik, axloqiylik, soflikning to'liq qaror topishi;
 - c) milliy qadriyatlarning to'liq tiklanishi va unga asosan milliy g'ururni shakllantirish;
 - d) milliy g'ururni milliy e'tiqod bilan uyg'unlashtirish;

e) milliy istiqlol g'oyasiga e'tiqod: o'ziga do'stlik va hamkorlikda yashash va ishlash; kattalarga hurmat, kichiklarga e'zoz; vatanga muhabbat, ota-onalarga hurmat va farzandlik burchini vijdonan bajarish; oilaga g'amxo'rlik; millatlarga ajratmaslik; ajdodlar an'analarga sodiqlik; bilimni izchil va muntazam oshirish; islom diniga hurmatni tarbiyalash; milliy madaniyatni rivojlantirish; vatan va xalq tarixiga hurmat; yoshlar tarbiyasiga e'tibor va boshqalar.

II. Ma'naviy hayot.

1. Insonning ma'naviy hayoti – uning axloqiy, aqliy va estetik ehtiyojlarining va qiziqishlarining faol faoliyat jarayonida rivojlanishi, shakllanishi va qondirilishidir.

III. Ajdodlarning boy merosi asosida ma'naviy rivojlanish.

1. “Avesto”ning tarbiyaviy yo'nalganligi va g'oyaviy qarashlari.

2. “Qur'on”ning ma'naviy tamoillari.

3. Hadis ilmida ma'naviy nasihatlar.

4. Tarbiya tarixi, ajdodlarimiz va allomalarimiz fikrlari.

5. Ajdodlarimizning ma'naviy tarbiya haqidagi asarlari.

a) Xorazmiy, Buxoriy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy, Behbudiy, Avloniy, Fitrat va boshqalar.

b) Yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashda to'g'ri yo'ni ko'rsatuvchi yo'lchi yulduzlar – Al-Xorazmiy, Al-Buxoriy, farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, A.Navoiy, Ogahiy, Naqshbandiy va boshqalar.

IV. Ma'naviy tarbiya.

1. Maqsad: Milliy ma'naviyatning tiklanishi, milliy – ma'naviy merosni o'rganish.

2. Shaxsni rivojlantirish va takomillashtirish. Unda milliy va umuminsoniy sifatlarni tarbiyalash.

3. Ma'naviy – estetik tarbiyalash:

- a) Milliy – badiiy qadriyatlar asosida.
- b) Badiiy meros asosida.
- 4. Milliy – ma’naviy tarbiya – milliy-madaniy bilimlar majmuasini o’zlashtirish.
- 5. Adabiyotlar tavsiya etish.

Ma’ruzaning 4-chi qismi.

- I. Bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalash mezonlari.
 - 1. Ma’naviy – estetik tarbiyalash mezonlari.

O’qituvchining ma’naviy – estetik tarbiyalash kasbiy zaruriyat ekanligini anglab etishi.
- II. Bo’lajak o’qituvchilarga ma’naviy – estetik ish mazmunini, imkoniyatlarini va kelajagini ifodalab berish.
- III. Zarur tushunchalar ko’lamini o’zlashtirish.

Ma’ruzaning 5-chi qismi.

- I. Ma’ruzaning asosiy mazmunini umumlashtirish.
 - 1. I.A.Karimov asarlari va nutqlarida ma’naviyat, ma’naviy tarbiya masalalari.
 - 2. Ma’naviyat mohiyati, ma’naviy tarbiya.
 - 3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ma’naviy tarbiyaga talablari.
- II. Mavzu bo’yicha adabiyotlar: “Ma’naviyat”, “Ma’naviy tarbiya, rivojlanish”.

Ma’ruza materialini mustahkamlash.

- I. Savollar: Nima uchun insonga ma’naviyat zarur? Ma’naviy tarbiya manbaalarini sanang. I.A.Karimovning masalalaridagi asarlarini sanab bering.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo’lajak kadrlarga yuksak ma’naviyat bo’yicha talablari. Ma’naviy boy shaxs haqida tushunchangiz? Shaxsning ma’naviy – estetik qiyofasi haqida nima bilasiz?

Buyuk Sharq allomalarining ma'naviyat haqidagi fikrlari va ularga izoh berib.

Talabalar mazkur topshiriqlarni bajarish jarayonida o'zlarini, bir-birini yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Bularning barchasi ularda milliy qadriyatlarni anglash jarayonini faollashtiradi – natijada ma'naviy – estetik dunyoqarash sekin – asta shakllanib boradi.

Shu va shu kabi ma'ruzalar talabalarga o'tilib, tajriba va nazorat guruhlaridagi tadqiqot muammosi o'rganilib, ular qiyosiy tahlil etilganda tajriba guruhdagi talabalar muammosi anglab yetganligi aniqlandi.

Bob bo'yicha xulosalar.

1. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash muammosi yechimi uchun metodologik asosni qayta ko'rib chiqishni, avvalambor ma'naviyat va shaxsning ma'naviy rivoji haqidagi davlat ta'lim siyosatini o'rganishni, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarini chuqur tahlil qilishni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (KTMD) o'rganishni tadqiqot muammosi nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etildi.

2. Badiiy meros asosida pedagogik kadrlarni ma'naviy – estetik tarbiyalash muammosi metodologik ahamiyatga molikligi, bu muammo yechimining ijtimoiy – pedagogik imkoniyatlarini aniqlash.

3. Bir qator atama va tushunchalar mohiyatini ko'rib chiqish konseptual ahamiyatga ega: “ma'naviy – estetik tarbiyalash”, “badiiy qadriyatlar asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash”, “o'zbek xalqining badiiy merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash”.

4. Tadqiqotning konsepsiyasi metodologik ahamiyatga ega – o'zbek xalqining badiiy merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash mezonlari, sxemasi va tizimi ishlab chiqildi, hamda bunday o'qituvchilarni tayyorlashning fanlararo modeli ishlab chiqildi.

5. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning metodologik asosi davlat ta'lim siyosati darajasida ko'rib chiqildi, mualliflik konsepsiyasi ishlab chiqildi, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash mezonlari sinovdan o'tkazildi, ma'naviy – estetik tarbiyalash imkoniyatlari aniqlandi – bularning barchasi tadqiqot muammosining muvofaqqiyatli bajarilishini ta'minlaydi.

II – bob. Badiiy meros asosida Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari.

2.1. Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida talabalarni ma'naviy estetik tarbiyalash mazmuni

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, yosh avlodning ma'naviy – estetik tarbiyasiga, xususan shu asosda yangi mutaxassis kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratdi. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadryatlarga tayangan xolda yuqori ma'naviyatni tarkib toptirish, ayniqsa ta'lim sohasida, birinchi galda pedagogik kadrlarni tarbiyalash, hayotiy zaruriyat hisoblanad.

Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni yuqori ma'naviy-estetik salohiyatli, estetik qobiliyatli, guzallikni his eta oladigan, ularni o'z tarbiyalanuvchilariga bera oladigan, ayniqsa o'zbek xalqining boy milliy-badiiy me'rosiga oshno eta oladigan darajada tarbiyalash pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarga boy ma'naviy-estetik bilim berish kelgusi pedagogik faoliyatida asqotishi bilan ham ahamiyatlidir.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash davlatning ijtimoiy-pedagogik buyurtmasi bo'lib, unga bo'lajak pedagog kadrlar ta'lim – tarbiyasiga zamonaviy talablar ishlab chiqish orqali amalga oshadi.

Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash zamonaviy oliy ta'lim tizimining dolzarb muammosi sifatida quyidagilarni amalga tadbqiq etish zarur:

- Davlat ta'lim siyosatiga muvofiq zamonaviy umum metadologik talablarni aniqlash, zarur xollarda o'zgartirishlar kiritish;
- bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ilmiy muammo atrofidagi tushunchalar ko'lamini o'rganish va zarur xollarda aniqliklar kiritish (“Estetika”, “Ma'naviyat”, “Estetik qadriyat”, “Ma'naviy-estetik tarbiya”,

“Madaniyat”, “Badiiy me’ros”, “Badiiy qadriyat”, “Milliy badiiy qadriyat”, “Badiiy qadriyatlar asosida ma’naviy-estetik tarbiyalash” va boshqalar);

- ma’naviy-estetik tarbiyaning bo’lajak o’qituvchilarini kasbiy shakllantirishdagi o’rnini aniqlashda talabalarning yosh hususiyatlarini hisobga olish;

- pedagogika fanlari dasturlarini modifikasiya qilish va ularning bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy-estetik tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash;

- bo’lajak o’qituvchilarni MET ning umumpedagogik tizimini ishlab chiqish;

- o’zbek xalqining boy me’rosidan yuksak milliy-estetik qadriyatlarini saralab olish (ular bo’lajak o’qituvchilarda boy intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va ma’naviy dunyoini boyitadi, kelgusi pedagogik faoliyatida ulardan unumli foydalanadi);

- pedagogika fanlari ma’ruzalari mazmunini, ularning texnologik xaritalarini, seminar-laboratoriya mashg’ulotlari ishlanmalarini ma’naviy-estetik mazmun bilan boyitgan xolda qayta tayyorlash;

- talabalarga ma’naviy-estetik ta’sir ko’rsatishning samarali omillari, metodlarni va shakllarini aniqlash;

Yuqorida qayd etilganlarni ma’lum bir izchillikda pedagogika fanlari mazmuniga sobitqadamlik bilan singdirilsa, bo’lajak o’qituvchilarning ma’naviy - estetik saviyasi yanada yuksaladi. Bu bilimlar o’qituvchilarning bo’lg’usi pedagogik faoliyatlarida o’z o’rnini topadi.

Navbatdagi vazifa. Bo’lajak o’qituvchilarning ma’naviy-estetik jixatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash. Shu maqsadda bo’lajak o’qituvchilarning ma’naviy-estetik tarbiyalanganlik darajasini aniqlash me’zonlarini quyidagicha tavsiya etamiz:

1. Davlat ta’lim siyosatiga mos ravishda ma’naviy – estetik rivojlanishini kasbiy-shaxsiy anglab yetish zaruriyati.

2. Ma'naviy-estetik kategoriyalari, tushunchalarini bilish xamda bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashga qo'yiladigan talablarni anglab yetish.

3. O'zbek halqining baydiiy me'rosi haqida tarixiy bilimlarga ega bo'lish.

4. O'zbek xalqining "abadiy qadriyatlari" sirasiga kiruvchi asarlarni o'rganish:

- estetik his-tuyg'u bilan qabul qilish;
- intellektual-ijodiy, badiiy-analitik darajada o'rganish;
- asarga tanqidiy baho berish, munosabat bildirish:

a) hissiy

b) qadrllovchi

v) kelgusi faoliyatda foydalan olishni "ko'rish".

5. o'zlashtirilgan bilim, motivlar, tushunchalar, taasurotlar, ma'naviy-estetik e'tiqodlarni umumlashtirgan xolda kelgusi pedagogik amaliyotida qo'llay olish malakalarini shakllantirish.

6. Ma'naviy-estetik jixatdan o'zini takomillashtirishga ehtiyojni tarkib toptirish:

a) ajdodlarimizning badiiy me'rosi sohasida

b) o'zbek xalqining badiiy madaniyati sohasida

v) boshqa halqlarning badiiy me'rosi sohasida

g) shaxsiy-kasbiy sohasida

yuksak badiiy me'ros namunalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash quyidagi kompanentlarni nazarda tutadi – yo'naltiruvchi-motivasiyalar, shaxsga yo'naltirilganlik, tushuncha – atamalar ko'lami, tarixiy, o'quv – bilish, badiiy – analitik, ijodiy aks ettiruvchi, o'z – o'zini baholovchi, o'z-o'zini takomillashtiruvchi.

7. Milliy g'rur va iftixor uyg'otuvchi o'zbek xalqining badiiy me'rosi haqida tarixiy bilimlarga ega bo'lish hamda ular orasidan yuksak ma'naviy-estetik mazmunga ega bo'lgan tarbiyaviy salohiyatlarini ajratib ola bilishi.

Yuqorida qayd etilganlarga asoslanib, pedagogik kadrlarni ma'naviy-estetik tarbiyalashni pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida xalqimizning yuksak badiiy me'roslari asosida yanada takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari: davlat ta'lim siyosati talablarining mazkur muammo mohiyatiga kelishi;

Perzidentimizning ma'naviyat haqidagi fikrlari;

Pedagogik kadrlar tayyorlashga qo'ygan talablari;

Ma'naviy-estetik tarbiyaning nisbatan zaifligi;

Ta'lim muassalarida tarbiya omilining ustivor o'rni egallashi;

Ajdodlarimiz me'rosi va tarximizni izchil o'rganilishi va ularning yoshlar ongiga yetkazilishi zaruriyati;

Faol ijodiy tafakkur, milliy ongning uyg'onishi;

Halq me'rosini teran anglash davr talabi ekanligi;

Milliy g'urur va milliy iftixorni tarkib toptirish zaruriyati;

Pedagogik kadrlarning ma'naviy – estetik tarbiyasi davlat, jamiyat, halq ta'limi, ta'lim muassasalarining ijtimoiy-pedagogik buyurtmasi ekanligi kabilardir.

Pedagogik kadrlarning milliy va umuminsoniy qadryatlar asosida ma'naviy-estetik tarbiyasi muammosi yechimi kechiktirib bo'lmas ijtimoiy ahamiyatga ega. Mazkur muammoni hal etish pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi, ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga va pirovard natijada davlat ta'lim siyosatining bajarilishiga olib keladi, kadrlar tayyorlash milliy dastrining bajarilishini ta'minlaydi.

2.2 Badiiy meros asosida Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning nazariy – pedagogik va amaliy asoslari.

Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida milliy – badiiy meros asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning nazariy – pedagogik va amaliy asoslari: metodologo – pedagogik asoslar, yetakchi g'oyalar; zarur atama – tushunchalar mazmuni; bo'lajak o'qituvchilarni manbaalari; talabalarning psixologo – pedagogik tavsifi, yoki xususiyatlari; psixologo – pedagogik sharoit; qoidalar, qonuniyatlar, ularning o'ziga xosligi va yo'nalganligi, amallar; pedagogik jarayon – bularning barchasi pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida milliy – badiiy meros asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning tizimi sifatida; bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik texnologiyalari; ma'ruza – milliy – badiiy meros asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayonini tashkil etishning asosiy shakli; ma'naviy – estetik tarbiyalashning shakl, metod, vositalari, metodik uslublari; ma'ruza materiallari bo'yicha topshiriqlar; bo'lajak o'qituvchilarga ma'naviy – estetik mazmunni yorituvchi metodik ishlanmalar; milliy – badiiy qadriyatlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalashga qo'yiladigan talablar.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalashning metodologiyasi, konsepsiyasi va yetakchi g'oyasi.

Ajdodlarimizning milliy – badiiy merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning metodologik – pedagogik asosi sifatida quyidagilar belgilangan edi: davlat ta'lim siyosatining o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalash haqidagi metodologik talabi, I.A.Karimovning muammoga oid fikrlari; xalq pedagogikasida tarbiya masalalari, Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi g'oyalari; oiliy ta'limda ta'lim – tarbiya, shaxs nazariyasi, shaxsga yo'naltirilgan tarbiya; pedagogika metodologiyasi – materialistik

dialektika va bilish nazariyasi; tarbiyaga umumiy yondashuv haqidagi talablar; nazariyasi999 bilan kasbiy – shaxsiy rivojlanish o‘zaro aloqadorligi; talabalarni bo‘lajak tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga e‘tibor.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma‘naviy – estetik tarbiyalash konsepsiyasi quyidagi asosiy talablarda o‘z aksini topadi: bo‘lajak pedagogik kadrlarni ma‘naviy – estetik tarbiyalash – oliy ta‘lim tizimidagi muhim va dolzarb masaladir, jumladan, pedagogik oliy ta‘lim tizimida, bo‘lajak o‘qituvchilarning ma‘naviy – estetik tarbiyasi davlat ta‘lim siyosati talablari bilan hamohanglik bilan ham kuchli ijtimoiy pedagogik harakterga ega; bo‘lajak o‘qituvchilarni ma‘naviy – estetik tarbiyalash pedagogika fanlarini o‘qitish tizimida yuksak ma‘naviyatli milliy – badiiy qadriyatlarga tayanish. Natijada pedagogik kadrlar tayyorlash sifiti yuksaladi.

Zarur so‘z zaxirasi – ma‘lum tushunchalar ko‘lami. Quyidagi tushunchalar ko‘rib chiqiladi va umumlashtiriladi: “ma‘naviyat, vazifa va mohiyat”, “ma‘naviyat tarkibi, uning tuzilishi”, “ma‘naviy hayot”, “ma‘naviy rivojlanish”, “ma‘naviy tarbiya”, “ma‘naviy – estetik tarbiyalash”, “bo‘lajak o‘qituvchilarni ma‘naviy – estetik tarbiyalash”, “estetik madaniyat”, “badiiy qadriyat”, “badiiy meros”, “abadiy qadriyatlar”, “milliy – badiiy meros”.

ning maqsadi, vazifalari, motivlari, mazmuni va manbaalari.

Maqsadi: doimiy – shaxs rivoji; umumiy – pedagogik kadrlar tayyorlashsifatini takomillashtirish; aniq – davlat ta‘lim siyosatiga mos ravishda ma‘lum pedagogik tizimda ma‘naviy – estetik tarbiyalash.

Vazifalari:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘zlarini ma‘naviy estetik takomillashtirib borishga tayyorlash.
2. Milliy – badiiy qadriyatlar haqidagi tushuncha va atamalar, ularning tarixi haqidagi bilimlarni egallash zarurligini anglash, ularni ifoda eta bilish, ma‘naviy – estetik tarbiyalashning o‘qituvchilarni tarbiyalashdagi salohiyatini o‘rganish.

3. O'zbek xalqining badiiy merosi sairasiga kirgan asarlarning tarbiyaviy – pedagogik salohiyatini umumlashtirish va o'z taasurolari, hissiyotlari, qiziqishlarini bo'lajak pedagogik faoliyatida qo'llay bilish.
4. Talabalarda ma'naviy – estetik tarbiya takomillashtirib borish ehtiyojini faollashtirish.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalash, motivatsiyalash.

“Motiv”, “motivatsiya”, “motivlashtirish” tushunchalarini ko'rib chiqish va ularning bo'lajak pedagogik kadrlarni ma'naviy – estetik tarbiyalashdagi rolini asoslash.

“Motiv” – sub'ekt ehtiyojini qondirishga undovchi faoliyat; sub'ektning ichki va tashqi faolligini uyg'otuvchi omillar majmuasi. Tadqiqotimizda bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalashga undovchi ongli motivlar – pedagogika fanlarining muvofaqqiyatli o'rganilish omili sifatida baholangan.

“Motivatsiya” – organizm faolligini uyg'otuvchi va yo'nalishini belgilovchi omildir. Bu o'rinda ehtiyoj faollik manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotimizda motivatsiya barcha bosqichlarda foydalanilgan, talabalarning ichki dunyosini faollashtirish – bilishni, ijod qilishni, kasbiy shakllanishni, o'z – o'zini tarbiyalashni faollashtirish omili sifatida baholangan.

“Motivlashtirish” – harakatga undashning, ijtimoiy foydali harakatning zarurligini tushuntirishning oqilona usulidir.

Tadqiqotimizda talaba nafaqat o'zini bilim bilan boyitadi, balki kursdoshlarini ham ma'naviy – estetik jihatdan qurollantiradi, o'ziga va o'zgalarga baho beradi. Bu o'rinda me'yoriy va qiyosiy vazifalar amalga oshiriladi. Shunday qilib, motivlashtirish – motivlarni anglashning bir shakli xolos. Motivlashtirish orqali o'qituvchi ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha urunish va harakatlarini oqlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiya qo'llab – quvvatlash.

Qo'llab - quvvatlash – individning ruhiy holatini harakterga keltiruvchi ta'sir ko'rsatishdir va oqibatni yuzaga kelturuvchi sababdir. Pedagogika fanlarini

o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashda quyidagi qo'llab – quvvatlashlardan foydalaniladi: hissiy – bilish, shaxsiy – rivojlantiruvchi, kasbiy, ma'naviy – estetik, tarixiy – madaniy sohada milliy – badiiy, aqliy – ijodiy, o'z – o'zini takomillashtirish. Bu o'rinda asosiy e'tibor – talabalar hohishini faollashtirishga, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, ma'naviy – estetik tarbiyalash zavqli faoliyatga aylantirish; aniq pedagogik vaziyatlarda hissiyotdan mantiqqa o'tish, qo'llab – quvvatlash, rag'batlantirish, omadli kelajakka ishontirish, o'qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyati va maqomiga ishontirish kabilarga qaratiladi. Bir so'z bilan aytganda o'qituvchi ma'naviy – estetik tarbiyalash kasbiy – shaxsiy imkoniyatlari rag'batlantirish, kelgusi faoliyatga ilhomlantirishdan iborat, qo'llab – quvvatlashning oddiy bo'lmagan usullaridan foydalaniladi. Ular – maqtov, ammo aniq yo'nalgan, samimiy, kichik tanqid aralashgan, ammo umid bag'ishlovchiohang va iboralar. Bu o'rinda ko'pchilik oldida ijobiy tavsif berish katta ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyasini qo'llab – quvvatlashda quyidagi komponentlardan foydalanish o'rinli:

Zafarli kelajak, kasbiy rivojlanishning ongliligi
Badiiy qadriyatlar ma'naviy – estetik mazmunining jozibadorligi, ularning tarbiyaviy salohiyati, ulardan foydalanish imkoniyatlari
Ma'naviy – estetik olamning keng qirraligi, va uning bo'lajak o'qituvchi faoliyatidagi o'rni
Ma'naviy – estetik tarbiyaga erishganlikni ko'rsatish, maqtash yaxshi tanqid hurmatini oshirish.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyash mazmuni va manbaalari.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash mazmuni: o'zbek xalq badiiy asarlarining ma'naviy – estetik salohiyati - ma'naviy – estetik tarbiya omili sifatida.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash manbaalari: I.A.Karimovning ma'naviyat haqidagi asarlari va nutqi; Kadrlar tayyorlash milliy dasturining tegishli bndlari; o'zbek fol'klori – eposlar, rivoyatlar, ertaklar, maqol va naqlar; Sharq mutafakkirlarining ma'naviyat, ma'naviy tarbiya haqidagi pedagogik g'oyalari; zamondosh olimlarimizning ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, ma'naviy – estetik tarbiyalash haqidagi ilmiy tadqiqotlari; tarbiya nazariyasi, pedagogika nazariyasi, didaktika, tarbiya metodlari; o'zbek xalqining badiiy me'rosi ma'lumotnomasi, lug'atlari, ensiklopediyalari, tarixiy manbaalari; o'zbek xalqining yuksak milliy – badiiy merosi na'munalari; xalqog'zaki ijodi asarlari (“Alpomish”, “Go'r o'g'li” poemalari, “Qahramon”, “Ur to'qmoq” kabi ertaklari, maqol va naqlar, adabiyot yodgorliklari, uyg'onish davrining yuksak ma'naviy – estetik mazmunli poeziyasi (Bobur, Mashrab, Uvaysiy); miniatyur musavvirlik – portretlar, peyzash, arxitektura, musiqiy mavzulardagi asarlar, illyustratsiya kabilar buyuk musavvir Kamoliddin Behzod asarlari misolida (“Shayboniyxon portreti”, “Shahzoda portreti”, “Bobur portreti”, Nizomiy asarlariga illyustratsiyalar); O'zbekiston hududidagi milliy arxitektura yodgorliklari (Samarqandda: Bibixonin va Go'ri Amir maqbaralari, Registon aansambli, Shohi – Zinda majmuasi, Ulug'bek abservatoriyasi – slaydlar, fotolavhalar); ommaviy nashrlarning ma'naviyat muammosiga oid materiallari; tarixiy – madaniy ma'lumotlar beruvchi kompyuter sahifalari va boshqalar.

Talabalarning psixologo – pedagogik tavsiflari, ulardan ma'naviy – estetik tarbiyalashda foydalanish:

Talaba yoshlar psixologiyasi – o'smirlik. O'smirlik ijtimoiy – psixologik holat sifatida o'rganiladi. Biz e'tiborni bu yoshning ichki dunyosi va o'zini

anglashga qaratamiz. O'smirlik – ijtimoiylashishning ma'lum bosqichi bo'lib, mustaqillik va ma'suliyatning namoyon bo'lishi bilan harakterlanadi. Bu yoshda ularda ma'lum munosabatlar shakllanib ulgurgan, shaxsiy – ruhiy muammolari mavjud. Mazkur yosh bosqichida ularning aqliy faoliyatini e'tiborga olish zarur: barqarorligi, samaradorligi, amaliy ahamiyati, mustaqillik. Shu bilan birgalikda o'zini anglashning rivojlanganligi ("Men" konsepsiyasi mavjudligi, o'zini o'zi tahlil qilish, tanqid qilish, o'ziga atalab qo'ya olish). Hurmat qilinishiga ehtiyoj, o'z kuchiga ishonch, kasbiy intilish, raqobatlashish istagi, muloqot doirasining kengayishi kabilar e'tiborga olinadi. Shu bilan birgalikda bu yoshda lirik kayfiyat, she'riyatga qiziqish, do'stlikni qadrlash, samimiy muhabbatlarni kuzatamiz. O'zini namoyon etish, sinab ko'rish va hohish kuchayadi. O'smirlik atrofadagilar bilan muloqotdan, badiiy asarlar ta'siridan ma'naviy – estetik qoniqishga ehtiyoj sezadi.

Zamonaviy o'smirlar keng qamrovli qoniqishlari va boy ma'naviy ehtiyojlari bilan o'tmish avlodlardan farq qiladi. O'smirlikda o'z qadriyatlari mavjud, mavjud qadriyatlarni baholash mezonlari shakllangan. O'zlikni namoyon etish uchun o'quv va ijtimoiy faoliyat jadallashib boradi, kasbiy faoliyatga ehtiyoj kuchayadi. Hayotiy va kasbiy takomillashish faollashadi, o'zini o'zi tarbiyalay boshlaydi, dunyoqarash shakllanib boradi. Tanlangan kasbi bo'yicha o'z rejalarini tuzadi. O'qituvchilik kasbini tanlagan o'smirlarni ma'naviy – estetik tarbiyalash pedagogik kadrlarning kasbiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni talabalik yoshida ma'naviy – estetik tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar quyidagi maqsadda foydalaniladi: kasbiy shakllanish; ichki ma'naviy dunyosi, hissiy madaniyatni tarkib toptirish; hissiy – bilish, yuksak aqliy qobiliyat; kasbiy – angash qobiliyatlari; mustaqillik, ma'suliyat, tartiblilik, harakatchanlik; qadriyatlarni anglash, doimiy qiziqish va ehtiyojlar; o'zini kasbiy takomillashtirib boorish; o'zini anglash; tahlil va tanqid qila bilishi; o'zini namoyon etishi; muloqotga

ehtiyoj, ma'naviy – estetik tarbiyalash zaruriyatini anglash, badiiy dunyoqarashini kengaytirish va boyitish; o'zini tarbiyalashga qiziqish uyg'otish.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashda hissiy – estetik anglashni talab etuvchi badiiy qadriyatlarning roli va ahamiyati katta. Hissiy – estetik anglash – ijodiy tafakkur, tasavvurni talab etadi. Bular o'z o'rnida asar mohiyatini chuqur anglash, estetik va badiiy ahamiyatini tushunib yetish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayonda talabada estetik kechinmalar, estetik qoniqish hosil bo'lib, shaxsiy fikr tug'iladi, natijada u nafaqat anglab yetganlikdan quvonadi, balki anglashni o'zi kashf etganligida huzurlanadi. Aynan mana shu ma'naviy – estetik tarbiyanish boshlanishi hisoblanadi.

O'zbek xalqining tarixiy – madaniy merosi hisoblangan yuksak milliy – badiiy qadriyatlarni anglab yetish – shu qadriyatlarni anglash omili hisoblanadi. Buning natijasida talabalarda (bo'lajak o'qituvchilarda) milliy g'urur tarkib topadi, mantiqiy badiiy tafakkur shakllanib boradi, yuksak milliy – badiiy did qalbda joy oladi. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashga hissiy–estetik va aqliy – ijodiy yondashuv quyidagilarni talab etadi: ma'lum psixologo – pedagogik bilimlarni, o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslarini, amalda qo'llay olish ko'nikmalarini.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning psixologo – pedagogik shart – sharoitlari, omillari va qonuniyatlari.

Shart – sharoit – bu ta'lim faoliyati amalga oshadigan sharoitlar majmuasidir. Psixologo – pedagogik sharoit esa bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayonini amalga oshirayotgan muhit, avvalambor ijtimoiy muhit, talabalarning psixologo – pedagogik imkoniyatlari va albatta, o'qituvchining maqsadga yo'naltirilgan faolliklarini o'z ichiga oladi. Ta'kidlash kerakki, bugungi kun bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashning samarali ijobiy sharoiti mavjud. Ular qatoriga oily ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasi, talabalarning hissiy – emotsional madaniyati, abstrakt fikrlash faolligi, mantiqiy tafakkur, mustahkam xotira –

bularning barchasi tarbiyaga va o'z - o'zini tarbiyalashga ehtiyoj uyg'otadi, yanada takomillashish istagini vujudga keltiradi. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash muhim sharoiti tarbiyaning dasturiy mazmuni – ajdodlarimizning badiiy merosidan ma'naviy – estetik salohiyatli “abadiy qadriyatlar” mavjudligidir. Keyingi sharoit – rivojlanishi va o'rganishning o'zaro aloqadorligi omilidir: bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalash darajasi va erishilajak natijani bashorat qilishni aniqlashdir.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayonida quyidagi sharoitlar e'tiborga olinadi: talabalar tomonidan nafaqat ma'lum bilimlarning o'zlashtirilishi zarur, balki ma'lum qobiliyatlarni namoyon etish malaka va ko'nikmalarni egallash zarur hisoblanadi. O'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni kengaytirish – murakkablashtirish, jumladan o'z – o'zini o'qitish va tarbiyalash, tavsiya va topshiriqlarni ongli ravishda mustaqil bajarish jarayonida milliy – badiiy qadriyatlarni o'zlashtirish faollashadi. Va nihoyat, o'qituvchining avtoriteti, uning ma'naviy – estetik dunyosi, pedagogik madaniyati va professionalizm muhim sharoit hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan bo'lajak o'qituvchilarni pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida ajdodlarimizning milliy – badiiy merosi asosida ma'naviy – estetik tarbiyalashning psixologo – pedagogik shart – sharoitlarini umumlashtirib, quyidagi tarzda tizimlashtiramiz:

- metodologo – pedagogik;
- ta'limiy muhit;
- ruhiyati va yosh xususiyatlari;
- perspektiv – bashorat, motivatsiya va maqsadga intilish;
- aqliy – ijodiy;
- o'z – o'zini o'qitish;
- ijtimoiy – kommunikativ;
- kasbiy – pedagogik.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash tamoillari, umumiy qonuniyatlari va omillari. Tamoillar – bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashga qo'yiladigan talablar, jarayoni amalga oshirish metodlaridir. Asosiy tayanch tamoillar - : bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalashning ijtimoiy pedagogik yo'nalganligi; bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayonida kasbiy – shaxsiy tayyorgarligi; ma'naviy – estetik tarbiyalashning yosh xususiyatlarga mosligi – tabiatga muvofiqlik; ajdodlarimizning tarixiy – madaniy qadriyatlaridan bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashda foydalanish; ma'naviy va estetik tarbiya ta'sirini uyg'unlashtirish; bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash shakli va metodlari, mazmunini o'zaro muvofiqlashtirish; tizimlilik, izchillik, ko'rgazmalilik, nazariya va amaliyot birligi.

Tadqiqot asosi etib davlat ta'lim siyosati olindi: bo'lajak o'qituvchi ma'naviy – estetik tarbiyalash insonparvarlik, insonparvarlik asoslari, milliy – madaniy tamoillar; bo'lajak o'qituvchi ma'naviy – estetik tarbiyasini o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashga moslashtirish. Uzluksiz ta'lim – tarbiya tamoillariga tayanildi: bo'lajak o'qituvchilarning mavjud bilimlari, o'quvchilar ega bo'lgan ma'lumotlar. Bu o'rinda bo'lajak o'qituvchi ma'naviy – estetik tarbiyasi o'quv – biluv va o'quv – amaliy faoliyatini integratsiyalash; ajdodlar merosining ma'naviy – estetik salohiyatining o'ziga xos xususiyatini inobatga olish; bo'lajak o'qituvchilarga ma'naviy – estetik tarbiya zarurligi, majburiyligi va ehtiyojini anglatish; bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayonida pedagogika fanlari mazmunini tizimlashtirish va o'zaro aloqadorligini o'rnatish; o'quv – biluv va ma'naviy – estetik faoliyatlar oralig'ida o'z – o'zini tarbiyalash; kasbiy va shaxsiy ta'lim birligi; pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash darajasini faollashtirish va ijtimoiylashtirish. Ko'rsatib o'tigan tamoillar birgalikda ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayoni samaradorligini oshiradi, tamoillar turli ahamiyat kasb etsada bir xil e'tibor talab etiladi. Ammo

tadqiqotimizda foydalanilgan tamoillar tayyor bo'lmagan va universal hisoblanmaydigan qoidalardir – ular shaxsga yo'naltirilgan pedagogikada egiluvchan hisoblanadi, ba'zan bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash tizimida o'zgarishlari ham mumkin. Shuning uchun biz asosan I.P.Porlosiy belgilab bergan tamoillarga tayandik: “tarbiyaning ijtimoiy yo'nalganligi; tarbiyaning hayot bilan aloqadorligi; tarbiyada ijobiyga tayanish; tarbiyani insonparvarlashtirish; individual yondashuv; tarbiyaviy ta'sirlar birligi”. (Pedagogika. I.Porlasiy;, M.2006). ularni tadqiqotimiz jarayoni aqsadi va vazifalariga moslashtirib, quyidagilarga e'tibor qaratmoqchimiz: bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyasini kasbiy – shaxsiy yo'naltirish; bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalashni zamonaviy hayot va kasbiy – pedagogik talablar bilan omuxtalashtirish; ma'naviy – estetik tarbiyalash, bo'lajak o'qituvchilarda yuksak ma'naviy sifatlarni shakllantirish uchun ijobiyga tayanish zarurligi; bo'lajak o'qituvchilar shaxsga hurmat, uning kasbiy kelajagiga ishonch; talabalarning yosh va individual xususiyatlarini, shaxsiy sifatlarini inobatga olish zarurligi; pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida ma'naviy – estetik tarbiyalash harakatlarini muvofiqlashtirish.

I.P.Porlasiy ta'lim – tarbiya jarayoni qonuniyatlarini quyidagicha klasifikatsiyalaydi:

- didaktik qismlar – maqsad, mazmun, shakllar, metodlar, vositalar, usullar.
- genisiologik – bilish – anglash;
- psixologik – ustivor anglash;
- ma'lumot beruvchi;
- ijtimoiy.
- tashkiliy – pedagogik.

Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash omillari.

Bugungi pedagogikada quyidagi samarali didaktik omillar mavjud: bosh, kompleksli, umumiy, maxsus, o'zgaruvchan.

Masalan, to'rt bosh omil: o'quv material, tashkiliy pedagogik ta'sir, o'quvchining bilimdonligi, vaqt.

Ularning har biri ko'plab samarali sabablarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash o'quv – tarbiya usullari, vositalari, texnologiyalari, metodlaridan foydalanishni taqozo etadi. O'zimizning tadqiqot ishimiz maqsadida quyidagilarni ajratib oldik: motivatsiya-ma'naviy – estetik tarbiyalash zarurligi ifodalash, unga ijobiy munosabatni tarkib topdirish; psixologik sharoit; o'quv mashg'uloti turi va tuzilishi; ma'naviy – estetik tarbiyalashni boshqarish; o'quv topshiriqlarini tizimlilik; amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi; o'quv material miqdori, tuzilishi va murakkabligi; o'quv faoliyat metodlari, vositalari, turi va harakteri; bilimni ifodalash shakllari; bilimlarni mustahkamlash vaqti; bilimlarni nazorat etish; pedagogik munosabatlar.

Pedagogik jarayon (uning vazifalari, xususiyatlari, mohiyati, mazmuni) – pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni milliy – badiiy meros asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash sifatida.

Pedagogik jarayon vazifalari, xususiyatlari va mohiyati (ma'naviy – estetik tarbiyalashda).

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayoni vazifalari: asosiylari – ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi; o'qitish vazifalari: tashkil etish, boshqarish va nazorat, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning kasbiy yo'nalganligi.

Ma'naviy – estetik tarbiyalash xususiyatlari: aniq maqsadga yo'nalganlik; o'zaro harakatlar (o'qituvchi - talaba), ko'p omillilik (ob'ektiv va sub'ektiv omillar ko'pligi); uzoq vaqt, xarakatchanlik; o'qituvchiga tobelik (shaxs, talabalarga aloxida yondashuv); ma'naviy – estetik tarbiyalash usluksizligi; kasbiy-pedagogik maxorat; teskari aloqa (talaba-o'qituvchi).

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash mazmuni: bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash, har tomonlama yetuk pedagogik

kadrlarni tayyorlashning bilimlar, tushunchalar, tasavvurlar, hissiyotlar, e'tiqodlar, qobiliyatlar, shaxsiy sifatlar tizimi.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash ular uchun zarurligini aniq biladilar – yosh avlodni ma'naviy – estetik tarbiyalash. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayonida quyidagi muhim sifatlar tarkib topadi: kasbiy burch va ma'suliyat, ma'naviy – estetik tarbiyalash zarurligi; hissiy madaniyat, estetik, ma'naviy – estetik bilim; milliy – badiiy qadriyatlar haqidagi bilim; badiiy dunyoqarash; ma'naviy takomillashish; estetik anglash; badiiy – analitik qobiliyatlar; milliy iftixor tuyg'usi; milliy ong; aqliy – ijodiy qobiliyat; pedagogik ijodkorlik, estetik did shakllanib boradi.

Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida milliy – badiiy meros asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash tizimi.

Ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayoni murakkab va ko'p qirrali faoliyat bo'lib, u o'zining quyi tizimiga ham ega. Ular quyidagilar:

1. Davlat ta'lim siyosati talablarida muammoning ahamiyatini talabalarga yetkazish. Buyuk Sharq mutafakkirlarining falsafiy fikrlari, xalq pedagogikasi donishmandligi misolida bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash muhimligini tushuntirish, ma'naviy – estetik tarbiyalash mohiyatini ochish.
2. Ma'naviy – estetik tarbiyalashga oid bilim, tushuncha, tasavvurlar tizimining talabalar tomonida o'zlashtirilishi. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash bosqichlari, tizimi, pedagogik texnologiyalari, metodlari bilan tanishtirish.
3. Yosh avlodni tarbiyalash uchun bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik ijod va mahoratga o'rgatish.
4. Bo'lajak o'qituvchilarning seminar va amaliy mashg'ulotlarida ma'naviy - estetik amaliyotini tashkil etish kichik daralar, rolli o'yinlar, ko'rgazmalar, sahna ko'rinishlari.

5. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayoni va natijasi sifatida ma'lum ijtimoiy guruhda ijtimoiylashish faoliyati (ijtimoiy tajriba orttirish).

Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida ajdodlarimizning milliy – badiiy merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik texnologiyalari. Tarbiya texnologiyasi – bu o'qituvchining pedagogik masalalarni hal etishga qaratilgan izchil va aloqador harakatlari tizimidir; tarbiyaviy jarayonning oldindan rejalashtirilgan tizimining amaliyotga tadbqiq etilishidir. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashda umumiy texnologiyalardan foydalaniladi – fanlararo aloqadorlik, ma'ruzalar, metodlar, vositalar tizimi bilan; milliy – badiiy qadriyatlarni o'rganish texnologiyalari, tarbiya texnologiyalari.

Masalan: bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash fanlararo tizim sxemasi:

“Pedagogika tarixi”

“Pedagogika nazariyasi”

“Pedagogik texnologiyalar”

“Pedagogik mahorat”

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashga umumiy yondashuv quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- motivatsiyalar;
- ma'lumot – aqlash va kasbiy – anglash jarayoni;
- pedagogik – ijodiy;
- ma'naviy – estetik “amaliyot” va ijtimoiylashish;
- o'zini o'zi takomillashtirib borish.

Ma'ruza jarayonida asosan an'anaviy shaklda dars o'tiladi:

- kirish qismi;

- yangi material bayoni, dialog, diskussiya, ko'plab metodlar kompleksi, mustahkamlash;
- ma'ruza mavzusi bo'yicha topshiriqlar;
- mustaqil ishlar taklif etish.

Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida ajdodlarimizning milliy – badiiy merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash shakllari, metodlari va vositalari. Talabalarni ma'naviy – estetik tarbiyalash shakllari: ma'ruza soatlari, suhbatlar, amaliy mashg'ulotlar, talabalar anjumanlari, disputlar.

Talabalarni ma'naviy – estetik tarbiyalash metodlari: maqsadni aniqlash, ko'rsatma berish, mo'ljalni olish, vaziyatlar muhokamasi, ishontirish, tushuntirish, motivatsiya, oldindan ko'rish, suhbat, dokladlar, misollar, na'munalar, etalon, namunalarga taqlid qilib ifodali o'qish, muammoli ta'lim, qidiruv, musobaqa, mashq bajarish, pedagogik talablar, ijtimoiy fikr, jamoaviy ta'sir, topshiriq berish, tarbiyaviy vaziyatlar, pedagogik hamkorlik;

pedagogik tadqiqot: kuzatish, test, umumlashtirish, xulosa, rezume, nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish;

o'z-o'zini tahlil etish, rag'bat, baho. Metodlar klassifikatsiyasiga rioya etildi: og'zaki (ifodalash, ma'lumot berish, hikoya, tushuntirish, suhbat, diskussiya, ma'ruza, kitob bilan ishlash); ko'rgazmali (mashq, laboratoriya va seminar ishlari).

Talabalarni ma'naviy – estetik tarbiyalash usullari: hissiy – estetik ta'sir; o'qituvchi – talabalar hamkorlik faoliyati orqali ta'sir ko'rsatish; sintez, tahlil, badiiy qadriyatlarni qiyoslash.

Talabalarni ma'naviy – estetik tarbiyalash vositalari: metodlarning tarkibiy qismlari yoki bir ko'rinishi. Vositalar – usullar va metodlarning jamlama faoliyatidir.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashda ma'naviy–estetik mazmunga ega bo'lgan topshiriqlar nazariy – pedagogik, amaliy va metodik ishlar.

Bu topshiriqlar maqsadi, shakli, mazmuni va hajmiga ko'ra turlicha. Ular mustaqil bajariladi. Topshiriqlar ma'ruza materiallari yuzasidan, dastur bo'limlaridan fan yakuniga bag'ishlangan. Lug'atlar, manbaalar, tavsiya etilgan adabiyotlar yuzasidan mustaqil ishlar tavsiya etiladi. Bu o'rinda metodologik – pedagogik, tarixiy, san'atshunoslik, badiiy – analitik, nazariy – pedagogik, nazariy – amaliy ishlar kengroq foydalaniladi. Bular: ma'ruza mavzusini asosiy tezislarga ajratish; I.A.Karimovning manaviyat haqidagi ishini mazmunini yozib kelish; Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zarur bandlarini ko'chirish; Sharq mutafakkirlarining ma'naviyat mavzusidagi manbaalarini o'rganish; ma'naviyat muammosiga doir adabiyotlarni qidirish va tahlil etish; tushuncha va lug'atlar ustida ishlash; bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash mezonlarini o'rganish; afsona, rivoyat, ertaklarning qisqa mazmuni; milliy – badiiy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati; xalqimizning milliy-badiiy qadriyatlarni qiziqarli kolleksiyalar to'plash; ma'naviy targ'ibot harakteridagi insho, referat va ma'ruzalar tayyorlash; ommaviy axborot sahifalarini ma'naviyat nuqtai nazaridan tahlil etish; o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish; albom tayyorlash.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyasini tadbiq etish makoni. Bo'lajak o'qituvchilar o'z ma'naviy – estetik tarbiyalash salohiyatini kelgusi pedagogik faoliyatida tadbiq etadilar, bu borada tajribalarini boyitadilar va shu bilan birgalikda bo'lajak ijtimoiy - pedagogik faoliyatiga tayyorlanib boradilar. Talabalarga o'z qiziqish va tanlashlariga qarab keng ko'lamli faoliyat turlariga taklif etiladi: o'quv jarayonida, darsdan tashqari vaqtda, kuratorga yordamlashish, seminar

mashg'ulotida, kollokviumlarda, hisobot mashg'ulotlarida, talabalar anjumanlarida, turli tarbiyaviy tadbirlar tayyorlashda, badiiy ijodlarda ma'ruza, nutq, ma'lumot berish, ifodali o'qish kabilar. Qayd etilgan tadbirlarda talaba o'zini ma'naviy – estetik tarbiyasini namoyon etish, erishgan yutuqlarini ko'rsatish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bu esa o'z o'rnida muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega, bu talabaga ko'pchilik oldiga muhim ma'lumot bilan chiqish qilish mas'uliyatini yuklash bo'lib birga unga jiddiy tayyorlanish ham talab etadi. Natijada talabalar ma'naviy – estetik tarbiyalashning ijtimoiy qadriyat ekanligini anglab yetadi. Bo'lajak o'qituvchilar bu jarayonda faol ishtirok etadi, o'z imkoniyatlarini va bor salohiyatini ishga soladi, jumladan ma'naviy – estetik salohiyatini ham - bo'lajak pedagogik kadrlarning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan jarayon davom etmoqda.

Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida o'zbek xalqining badiiy merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalashga qo'yiladigan talablar:

- ma'naviy – estetik tarbiyalash yuqori darajasiga intilish, ajdodlarimizning yuksak badiiy qadriyatlaridan unumli foydalanish, milliy g'ururni uyg'otish; milliy va umuminsoniy madaniyatdan bahramand bo'lish;
- ushbu qadriyatlarning ma'naviy – estetik salohiyatidan o'z kasbiy – shaxsiy takomillashishi uchun foydalilarini ajratib olish;
- o'zbek xalqining badiiy madaniyatiga, uning uzoq o'tmishiga, milliy – terixiy qadriyatlariga qiziqishning mavjud bo'lishi;
- o'zbek va boshqa xalqlarning badiiy merosidan “adabiy qadriyat”larni, ularning yuksak ma'naviy – estetik va yorqin milliy koloritini bilishi;
- milliy – badiiy qadriyatlar ichidan badiiy asarlarni hissiy – emotsional, estetik – mazmun jihatida qabul qilishi, so'ng analitik tahlil orqali kasbiy faoliyatida foydalana bilishi;

- o'zlashtirgan bilim, ishonch, e'tiqod, motiv, tuyg'u, tasavvur xotirada mustahkamlash va o'z pedagogik amaliyotida ulardan o'rinli va unumli foydalanish.

2.3. Muammo yechimining tajriba – sinov asoslari.

“Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari” muammosiga tajriba – sinov nuqtai nazaridan yondashuv talabalarni aniq o'quv – tarbiya muhitida ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslarini sinovdan o'tkazishni talab etadi. Bu jarayon nazorat va sinov guruxlaridagi natijalarni miqdor – sifat nuqtai nazaridan o'rganishni taqozo etadi.

Tabiiy tajriba asosiy hisoblanadi – o'quv jarayonining tabiiy sharoitida amalga oshiriluvchi pedagogik tadqiqot metodi; bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik mazmunga ega bo'lgan kasbiy faoliyatga yo'naltiruvchi tajriba. Pedagogik eksperiment pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalashga qaratilgan tajribadir. Tajriba – sinov jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar nazorat ostiga olinadi: ular – o'quv dasturlari, motivatsiyalar, tashkiliy – pedagogik, texnologik, ta'limiy, kasbiy – shaxsiy, ijtimoiy kommunikativ omillardir. Shakllantiruvchi tajriba – sinov - bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari samaradorligiga ishonch hosil qilishiga qaratilgan jarayon.

Tajriba – sinov orqali quyidagilar tekshiriladi: tadqiqot konsepsiyasi, yetakchi g'oyalar, gipotezalar; bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash maqsadi, vazifalari, motivlari, mazmuni va manbaalari; bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalashga erishilgan natijalarni tizimlash, pedagogik jarayoni, uning texnologiyalari faollashtirishning shakllari, metodlari, vositalari, metodikalarini.

Tadqiqotning tajriba – sinov ishlaridan asosiy maqsad pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida o'zbek xalqining yuksak estetik qadriyatlari asosida bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalashning tarbiyaviy samaradorligini tekshirishdir.

Tajriba – sinov ishlarining vazifalari:

1. Mualliflik g'oyasi, konsepsiyasi va ilmiy tahlillarini sinash – tekshirish.
2. Nazariy pedagogik xulosalarning amaliy natijalariga mosligini aniqlash.
3. Tajriba – sinov ishlari natijalariga tayanib tadqiqot ishining asosiy xulosalarini shakllantirish.
4. Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida o'zbek xalqining milliy – badiiy qadriyatlari asosida bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Pedagogik tajriba – sinov ishlari yaratuvchanlik xarakteriga ega. Bu jarayon bir necha talabalar guruhini tashkil etadi. Uzoq muddatli, pedagogika fanlarining tizimli – mazmunli aloqadorligini ta'minlash, pedagogika fanlari ishtiroki hamda tadqiqotchi rahbarligi nazorati va kuzatuv ostida amalga oshiriladi.

Tadqiqot ishining tajriba – sinov bazasi, ob'ekti va sub'ektlari.

Bazasi – pedagogika oliy o'quv yurtlari, pedagogika fakulteti.

Sub'ekti – pedagogika fanlari o'qituvchilari.

Pedagogika fanlari: “Pedagogika tarixi”, “Pedagogika nazariyasi”, “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik texnologiyalar”.

Ob'ekti - bo'lajak o'qituvchilar, bakalavrlar.

Tadqiqotning tajriba – sinov ishiga jami bo'lib 20 ta o'qituvchi jalb etildi (shundan 10 – nazorat guruhi, 10 tasi sinov guruhi uchun), talabalardan 100 nafar.

Tajriba – sinovning asosiy sharti: nazorat va sinov guruhlaridagi omillar tenglashtirildi, sinov ishining maqsad va vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: shakllantiruvchi, tuzatuvchi va yakuniy – natija, tajriba – sinov ishida jarayonning boshi va tajriba – sinov ishlaridan keyingi holatlar qiyoslanishi uchun aniqlovchi metoddan foydalaniladi. Shakllantiruvchi metod esa bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tushuncha, bilim va taasurotlarini,

qobiliyatlarini va shaxs sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi, ya'ni talaba shaxsining ma'naviy – estetik takomillashishiga qaratilgan maqsadli harakat va shaxsiy faollikdir.

Shakllantiruvchi tajriba – ijobiy, tarbiyaviy, ta'limiy hisoblanib, talabalarning yosh va pedagogik psixologiyalarini inobatga olib, talaba yoshlar shaxsining ma'naviy – estetik o'zgarishini qayd etib boradi.

Nazarimizda pedagogika fanlari yuzasidan m'ruza mavzulari va savollarini yana bir marotaba takrorlash zarur:

“Pedagogika tarixi”. Ma'ruza: “Ma'naviyat va ma'naviy tarbiya haqidagi davlat ta'lim siyosati”, “O'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash zamonaviy jamiyatning ijtimoiy – pedagogik buyurtmasi sifatida”, “Sharq buyuk faylasuf – allomalarini ma'naviy – estetik tarbiya haqida”, “Yosh avlodni ma'naviy – estetik tarbiyalashda ajdodlarimiz merosi”, “O'zbek folklorining ma'naviy – estetik salohiyati”, “Sharq uyg'onish davrining adabiy me'rosi, uning ma'naviy – estetik mazmuni”.

Seminar mashg'ulotlari mavzulari: “I.A.Karimov ma'naviyat, ma'naviy tarbiya haqida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy yosh avlod shaxsini ma'naviy tarbiyalash haqida”, “O'zbek xalqining badiiy merosida “abadiy qadriyatlar” namunalari, ularning estetik va ma'naviy mazmuni”.

Nazorat savollari: 1. Ta'limning zamonaviy bosqichida o'quvchilar dolzarbligi. 2. Yosh avlodni milliy – badiiy meros asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash imkoniyatlari. 3. Milliy – badiiy qadriyatlarning yuksak ma'naviy – estetik salohiyati.

Pedagogika nazariyasi. Ma'ruza: “Milliy – badiiy qadriyatlarni anglash jarayonida ma'naviy – estetik tarbiyalash va rivojlantirish”, “Zamonaviy o'qituvchining ma'naviy – estetik qiyofasi”, “O'qituvchilarni – estetik tarbiyaning muhim bo'lagi, umumiy tarbiyaning tarkibiy qismidir”, “O'quvchilarni milliy – madaniy qadriyatlar asosida ma'naviy – estetik

tarbiyalash mazmuni, shakllari, metod va vositalari”, “O’quvchilarda ma’naviy – estetik ongni shakllantirish – boy estetik dunyoqarash asosi sifatida”.

Seminar mashg’ulotlari mavzulari: “O’quvchiga qo’yiladigan talablar (ma’naviy – estetik tarbiyalash bo’yicha)”, “Bo’lajak o’qituvchilar ma’naviy – estetik jihatdan o’z – o’zini tarbiyalashi va o’z – o’zini takomillashtirib borishi”, “Milliy – badiiy qadriyatlar asosida o’quvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalash jarayoni”.

Nazorat savollari: 1. Ma’naviy tarbiya bo’yicha davlat ta’lim siyosatining asosiy talablari. 2. O’quvchilarning ma’naviy – estetik mohiyati, ma’naviy – estetik tarbiyaning pedagogik asoslari. 4. O’quvchi milliy – badiiy qadriyatlar bo’yicha nimalarni bilishi zarur? Badiiy qadriyatlar asosida o’quvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalash bosqichlari.

Pedagogik texnologiyalar. Ma’ruza: “O’quvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalash konsepsiyasi”, “O’quvchilarni milliy – badiiy qadriyatlar asosida ma’naviy – estetik tarbiyalashga tizimli – texnologik yondashuv”, “O’quvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalashning tarkibiy – mazmuniy asoslari”, “Milliy – badiiy qadriyatlar vositasida o’quvchi shaxsini ma’naviy rivojlantirish texnologiyalari”.

Seminar mashg’ulotlari mavzulari: “Milliy – badiiy qadriyatlar asosida o’quvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalash modeli”, “O’quvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik texnologiyalari”, “Badiiy meros” haqida o’quvchilar bilan suhbat uyushtirish”, “Sinfdan tashqari mashg’ulotlarda o’quvchilarni milliy – badiiy qadriyatlarni o’rganishga jalb etish”, “Abadiy badiiy qadriyatlar haqida ommaviy ma’ruzalarni rejalashtirish”, “O’quvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalashning interaktiv texnologiyalari”.

Mustaqil ish: “O’quvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalashga texnologik yondashuv talablari”, “O’quvchilarni ma’naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik – texnologik tamoillari”.

Yakuniy nazorat savollari: 1. Xalqimizning boy – madaniy meroslari asosida o'quvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning asosiy talablari. 2. Milliy – badiiy qadriyatlar asosida o'quvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning asosiy texnologiyalari.

Pedagogik mahorat. Ma'ruza: “Badiiy qadriyatlar asosida o'quvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashga ijodiy yondashuv”, “O'quvchilarga milliy – badiiy qadriyatlar haqida ma'lumotlar berish mahorati”, “O'quvchilarni tarixiy – madaniy qadriyatlar asosida estetik tarbiyalashga innovatsion yondashuv”.

Seminar mashg'ulotlari mavzulari: “Milliy – badiiy meros asosida o'quvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashda pedagogik ijodkorlikning namoyon bo'lishi”, “Estetik tarbiya bo'yicha ilg'or tajribalar”.

Mustaqil ish: “O'quvchilarni ma'naviy – ommaviy faoliyati pedagogik mahoratining namoyon bo'lishi sifatida”, “Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik madaniyati pedagogik mahoratining takomillashib borish omili sifatida”.

Yakuniy nazorat savollari: 1. O'quvchining ma'naviy – estetik ommaviy faoliyatida pedagogik texnika va mahorat. 2. Sharq mutafakkirlari tarbiya san'ati haqida. 3. O'qituvchining o'quvchilar bilan ma'naviy – estetik tarbiyalash muloqotida ijodiy yondashuv. 4. O'quvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayonida o'qituvchi mahorati. 5. Badiiy meros asosida o'quvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash da innovatsion texnologiyalar.

Pedagogika fanlari dasturlari mazmuni tadqiqot muammosi nuqtai nazaridan to'ldirish, ma'ruza, seminar, mustaqil ish mavzulari va nazorat savollarini tajriba tariqasida amalda sinab ko'rish, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash natijalarini bashorat qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

Tajriba – sinov ishlarini amalga oshirish bosqichlari:

I-chi bosqich.

Ijtimoiy – pedagogik asosga tayangan holda dastlabki – motivatsiyali – kasbiy – shaxsiy sinov.

1. Davlat ta'lim siyosati va Sharq mutafakkirlarining falsafiy – pedagogik g'oyalari, xalq pedagogikasi, zamondosh olimlarning metodologik tadqiqot natijalariga tayangan holda tajribalarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning ijtimoiy va kasbiy zaruriyatini ochib berish.

II-chi bosqich.

Asosiy – shakllantiruvchi, o'zgartiruvchi, ijodiy.

2. O'quvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha talabalarning zarur bilim, tushuncha, tasavvur, taasurotlar tizimini o'zlashtirilishi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy – estetik sifatlar, shaxsiy qobiliyatlar, kasbiy sifatlarni shakllantirish. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash pedagogikasi bilan tanishtirish - ma'naviy – estetik tarbiyalash tizimi, pedagogik texnologiyalari, metod va metodikalari.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik ijodkorlikka jalb etish, pedagogik mahorat va novatorlik bilan tanishtirish.

III-chi bosqich.

Ma'naviy – estetik amaliyot. Faollashtirish.

4. Bo'lajak o'qituvchilarning nazariy – amaliy mashg'ulot va seminarlarda ma'naviy – estetik amaliyoti – aqliy-ijodiy, shaxsiy, kasbiy, nazariy – pedagogik va uslubiy.

5. Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiylashishi - ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayoni va natijasi sifatida – ma'lum jamoada aniq faoliyati jarayonida.

6. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash holatining yakuniy tashhisi.

Tadqiqot jarayonining pedagogik tizimi tekshiriladigan tajriba faktlari bilan to'ldiriladi. Bunda bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik

tarbiyalash dinamikasi bosqichma – bosqich va yakuniy natilar (miqdor va sifat) hisobga olinadi.

Tajriba jarayonida pedagogik tizimning quyidagi tarkibiy qismlari yaxlitlanadi: motivatsiya, tushuncha va atamalar ko'lam, badiiy – estetik anglash, pedagogik takomillashish, “ma'naviy – estetik amaliyot”, faollashtirish va ijtimoiylashish.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning tajriba jarayoni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida olib boriladi, talabalarda quyidagi ma'naviy – estetik sifatlarni shakllantirishni nazarda tutadi: estetik va badiiy qadriyatlarga hissiy – ijobiy munosabat, ular: estetik va badiiy qadriyatlarga hissiy – ijobiy munosabat; milliy – badiiy qadriyatlar, ularni anglashga qiziqish; ma'naviy – estetik dunyoqarashning ijodiy namoyon bo'lishi; go'zallik, ma'naviy – estetik takomillashib borishga ehtiyoj va boshqalar. Bularning barchasi bo'lajak pedagogik faoliyatda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tajriba jarayonida nafaqat pedagogik tashhishlash mazmuni, tashkil etilishi, boshqarish va rahbarlik muhim sanaladi, balki bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashni o'rganish, tahlil etish, natijalarni baholashlar ham e'tibor markazida turishi ahamiyatlidir.

Pedagogik tashhishlashda talabalarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning psixologik va pedagogik tamoillariga e'tibor qaratildi. Tashhishlash jarayonida talabalarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning erishilgan natijalari, bosqichma – bosqich darajalari, imkoniyatlari tahlil etib borildi. Jarayonda quyidagi tashhishlash metodlaridan foydalanildi: talabalarni o'rganish (xususan talabalarining shaxsiy xususiyatlari, miqdoriy o'lchov, psixik jarayonlarni tushintirish, rivojlanib boorish imkoniyatlari). Zarur ma'lumotlarni to'plash maqsadida anketa savollari tizimi ishlab chiqildi. Masalan, talabalarining estetik fikrlari, shaxsiy ma'naviy – estetik sifatlari o'rganildi. Savollar: shaxsiy, anonim shaklda, to'liq, nazorat, yakuniy, o'z-o'zini baholashga qaratilgan mazmunda

tuzildi. Sifatga qaratilgan savollar – fikrlashni talab etadi, samimiy va ochiq javoblar tahlil etiladi. Anketa savollaridan ochiqlari – erkin ijodiy javob berishni talab etsa, yopiq savollar – mavjud javoblardan birini tanlashni talab etadi.

Standartlashtirilgan metoddan foydalanildi – testlar: erishilgan yutuqlar, bilimlar, rivojlanish, qabul qilish, natija, kasbiy, shaxsiy xarakterdagi. Testlar ham ijodiy xarakterdagi va to'g'ri javobni talab etuvchi shaklda tuzilgan.

Shaxsiy so'rov metodidan foydalanildi – “ha”, “yo'q” shaklidagi javoblarni talab etuvchi savollar turkumi. Shu bilan birgalikda o'zini baholashni talab etuvchi so'rov varaqalari (masalan, besh ballik). (So'rovnoma na'munalari ilova qilinadi).

Talabalarning ma'naviy – estetik tarbiyalashlik darajasini o'rganuvchi shakllantiruvchi metoddan foydalanildi. Tabiiy ta'lim – tarbiya jarayonida aniq ta'limiy va tarbiyaviy topshiriqlarning bajarilishi – bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy – estetik tarbiyalashlik darajasini aniqlash maqsadida foydalanildi.

Asosiy e'tibor tashhislashning quyidagi metodlariga qaratildi: kuzatish va suhbat.

Ilmiy kuzatish – bu ob'ektni tabiiy holda ko'zlangan jarayongacha va jarayonda, undan keying holati kuzatilib, sifat o'zgarishlarini qayd etib borishdir.

Kuzatish – asosiy metodlardan biri bo'lib – tabiiy, tizimli maqsadga yo'naltirilgan, rejali, uzoq muddatli, qisqa muddatligi bilan boshqalaridan farq qiladi.

Suhbatda – talabalarning ma'naviy – estetik tarbiyalashga (o'zini, o'quvchilarni) munosabati aniqlanadi. Ular: - his-tuyg'u, munosabat, ehtiyoj, qobiliyat va boshqa ma'lumotlar. Bu metod orqali talabalarning ichki dunyosiga kirib boorish, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar to'plash imkoniyatini beradi.

Bevosita suhbat jarayonida tayyor savollar bilan murojat qilish (to'g'ridan-to'g'ri, qiyosiy, yo'naltiruvchi) yoki erkin muloqot jarayonidagi

yo'l-yo'lakay savollar berishi imkoniyati mavjud. Har ikkala holatda ham maqsad aniq bo'lishi zarur.

Tadqiqot ishimizda nazorat va sinov guruhlaridagi natijalarni tahlil etish uchun qiyoslash va taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

Miqdor va sifat metodlaridan foydalanildi.

Miqdor raqamlar bilan belgilandi, sifat esa m'alum belgilar bilan belgilandi. Zarur hollarda statistic metoddan foydalanildi. Mazkur metodda quyidagilar aniqlandi:

- qayd etish - ma'naviy – estetik tarbiyalash sifati, uning miqdori;
- zanjir – erishilgan natijalarni ketma – ketlikda joylashtirish (masalan, o'sish);
- ahamiyatlisini aniqlash – metodlarning ta'sir darajasini o'rganish;
- baholash – raqamlar bilan baholash.

Yuqorida qayd etilgan metodlarning barchasi pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida o'zbek xalqining boy madaniy – badiiy meroslari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik asoslarini sinovdan o'tkazishga qaratilgan.

Bob bo'yicha xulosalar.

1. Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash muammosi ilmiy pedagogik asosni talab etadi. Buning uchun pedagogika fanlari dasturlarini ko'rib chiqish, hamda muammo yechimining nazariy – pedagogik va nazariy – amaliy asoslarini ishlab chiqish zarur.
2. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash pedagogika fanlari dasturlarini modifikatsiya qilish orqali amalga oshadi. Pedagogika fanlari dasturlariga bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha ma'lum qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.
3. Pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida badiiy meros asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning nazariy – pedagogik va nazariy – amaliy asoslari ishlab chiqildi, ulardan muhimlari:
 - bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashga metodologik, kontseptual yondashuv;
 - talabalarning psixologik – yosh xususiyatlari;
 - bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayonini ijobiylashtiruvchi psixologik – pedagogik sharoitlar;
 - bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash tamoyillari, omillari va qonuniyatlari;
 - bo'lajak pedagog kadrlar ma'naviy – estetik tarbiyalashning pedagogik jarayoni, uning mazmuni, asosiy tarkibiy qismlari;
 - ma'naviy – estetik tarbiyalashni tashkil etish shakli, metodlari, vositalari, uslubiy yondashuvlari;
 - bo'lajak o'qituvchilarga ma'naviy – estetik, tarbiyaviy mazmunga ega bo'lgan topshiriqlar tizimi;
 - bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha erishilgan natijalarni ijtimoiylashtirish;

- ma'naviy – estetik tarbiyalash bo'yicha bo'lajak pedagog kadrlarga talablar;
4. Pedagogika fanlari dasturlaridan ijodiy foydalangan holatda bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalashning nazariy – pedagogik va nazariy – amaliy asoslari bashorat nuqtai nazaridan ishlab chiqildi.
 5. Navbatdagi bob bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy – estetik tarbiyalash jarayoni tadqiqotini isbotlashga bag'ishlanadi.

Xulosalar.

1. Tadqiqot ishida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning zamonaviy metodologik manbaalari, metodologik asoslari ilmiy o'rganilib chiqildi, jumladan, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, davlat ta'lim siyosatida ma'naviy tarbiya masalalari tadqiq etildi. Tadqiqot muammosining bugungi kun pedagogikasi fani va amaliyotidagi o'rni tahlil etildi, uning dolzarbligi va davr talabi darajasiga kuchaytirilganligi asoslandi. Pedagogik kadrlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy – estetik tarbiyalash imkoniyatlari o'rganildi. Zarur tushuncha va atamalar ko'lami kengaytirildi, ma'nolariga aniqliklar kiritildi. Ma'naviy – estetik tarbiyalash mezonlari ishlab chiqildi. Muammoning pedagogika fanlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish orqali bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash mumkinligini isbotlashga harakat qilindi.
2. Tadqiqot g'oyasi aniqlandi, konsepsiyasi ishlab chiqildi, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalashning mazmuni, nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi.
3. Quyidagilar ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi:
 - bo'lajak o'qituvchilarni pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida ma'naviy – estetik tarbiyalash sxemasi va tizimi;
 - ma'ruza va seminar mashg'ulotlari;
 - tadqiqot muammosi yechimining samarali shakli, metodlari, vositalari.
4. Tadqiqot jarayonini optimallashtiruvchi tamoillar, omillar, sharoitlar va qonuniyatlar aniqlanildi.
5. Tavsiyalar ishlab chiqildi:
 - pedagogika fanlari o'qituvchilari uchun;
 - bo'lajak o'qituvchilar uchun o'qituvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash borasida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – Toshkent.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: o'z taraqqiyot va rivojlanish yo'li. – Toshkent.: O'zbekiston, 1992.
3. Karimov I.A. Mustaqillik va ma'naviyat. – Toshkent.: O'zbekiston, 1993.
4. Karimov I.A. Vatan barcha uchun muqaddas. – Toshkent.: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. Yaratuvchanlik yo'lida. – Toshkent.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Ma'naviy tiklanish yo'lida. – Toshkent.: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent.: O'zbekiston, 1999.
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent: Sharq, 1997.
9. Abdunabiev A. Ma'naviyat manbaalari va an'analar. – Toshkent. 2000.
10. Azarov Y.P. Tarbiya san'ati. M., 1989.
11. Annamuratova S.K. O'zbekiston o'quvchilarini badiiy – estetik tarbiyalash. – Toshkent: Fan., 1991.
12. Azizhodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent : TGPU., 2003.